

Marifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2023-yil 18-yanvar chorshanba № 3(9433)

Xalq ziyolilari gazetasi

O'zbek tili unli tovushlari haqida

(1-maqola)

A i ö e
U Ä O O' Ü

7-bet

11-, 16-, 18-yanvar
23-, ...

14-bet



O'qiluvchi
nimani
o'ylaydi?



Shu kunlarda ko'pchilikni ta'til masalasi o'ylantirmoqda. Ayrimlar yozgi ta'tilni qishga ko'chirish taklifini bermoqda. Menimcha, bu to'g'ri emas. Sovuqda yozning issig'ini unutdik. Sinfda 30–35 bola bilan 6 soat dars o'tishning o'zi bo'lmaydi. May oylaridanoq o'quvchilarda lohaslik, lanjlik boshlanadi. Endi yozni tasavvur qilavering. Anomal issiq insonlarga anomal sovuqdan ham ko'proq ta'sir qiladi.

Shahnoza SAYFUDDINOVA

Ta'lim ermak qiladigan, "bugun bo'lmasa ertaga" qabilida ish tutadigan soha emas. Bu fikrim yuqoridagi mansabdorlarga qaratilgan. Gap ertamiz egalari, kelajakni ishonib topshiradigan yoshlar haqida ketar ekan, sansalorlik, yuqori tashkilotlarning bir-biri bilan hisoblashmasligi juda uyatli holat.

Sohiba MAVLONOVA

Kundalik.com ham o'lda-jo'lda qoldi. Bizda 11-yanvardan dars jadvali joylashtirildi. Endi qay tartibda ish yuritishimiz kerak? Ertaga javob beruvchi ham o'zimiz bo'lib qolmaymizmi? Onlayn o'qish deganda ham mayliydi. Hamma biladi-ku, hech qayerda dars bo'lmaganini? Mas'ullar bunga ham yechim topsin.

Dildor NURMUHAMMEDOVA

Quyosh nuri hamma yerga teng tushar. Lekin mukofot puli masalasi hamma joyda har xil. Chekka hududlarda ishlab umri o'tgan ustozlardan so'rang. Uning nomini ham eshitishmagan. Bitta direktor, yuzga yaqin muallim. Lekin hech kim bu haqida gapirib, talab qilishga botinolmaydi. Nega so'ralmaydi, surishtirilmaydi, talab qilinmaydi? Nega doim jim yashaymiz, ustozlar?

Fotima RO'ZIYEVA

2016-yil 13-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi farmoni e'lon qilindi. Unda o'zbek tili va adabiyoti, ularning ta'limi, badiiy tarjima bo'yicha kadrlar tayyorlash, o'zbek tili va adabiyoti bilan bog'liq yetilgan ilmiy muammolarni hal etish bo'yicha qator vazifalar qo'yildi. Bu vazifalarning bajarilishi haqiqatan ham mavjud holat asosida ilmiy muammolarni aniqlash, ularni yechishning metodologik va metodik asoslarini ishlab chiqish, buning doirasida ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va o'zlashtirishning qulay, samarador, istiqbolli KONSEPTUAL TIZIMINI yaratishni taqozo qilardi. Zotan, bu masalada har bir professor-o'qituvchi ilmiy pedagogik faoliyatining o'q tomirini tashkil etadigan va uni qamrab oladigan yaxlit konsepsiya yaratilishi hamda uni amalga oshirish mexanizmining ishlab chiqilishigina muammo yechimiga olib kelishi mumkin edi.

Muhim vazifa

Prezident Farmonida universitet zimmasiga 7 ta asosiy vazifa yuklandi. Birinchi vazifa sifatida "O'zbek tili va adabiyotini, uning o'ziga xos xususiyatlari, ilmiy-nazariy, falsafiy-estetik asoslarini, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini chuqur o'zlashtirgan, davr talablariga javob beradigan yuksak malakali ilmiy va pedagog kadrlar tayyorlash" masalasi qo'yildi:

Bunda ikkita masalaga urg'u berildi:

- 1) ilmiy kadrlar tayyorlash;
- 2) pedagog kadrlar tayyorlash.

Tayyorlanayotgan kadrlar, demak, quyidagi talablarga javob bermog'i lozim edi:

- 1) o'zbek tili va adabiyotini chuqur bilish;
- 2) o'zbek tili va adabiyotining ilmiy-nazariy asoslarini o'zlashtirganlik;
- 3) o'zbek tili va adabiyotining falsafiy-estetik asoslarini bilish;
- 4) zamonaviy ta'lim texnologiyalarini chuqur o'zlashtirganlik.

Bu esa, o'z-o'zidan, tayyorlanayotgan kadrlar yuksak malakaga ega bo'lishining sharti edi. Kadrlar tayyorlash tizimi ta'lim maqsadi, ta'lim mazmuni va ta'lim usulining tubdan yangilanishini taqozo etardi.

Farmon ijrosi asosida bu vazifalar bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi. Universitet nisbatan qisqa davr ichida tetapoya bo'lishdan boshlab jahonning ilg'or universitetlari sirasidan ayrim jihatlari bilan munosib o'rinlarni egallashigacha katta odimlar tashladi. Ta'lim, fan va ishlab chiqarish yaxlitligi tizimida jiddiy yutuqlarni qo'lga kiritdi. Aslida bu vazifalarning qo'yilishini belgilaydigan bir necha omil mavjud edi. Quyida ushbu omillar, ularning sabab va natijalari, hali bajarilishi kerak bo'lgan vazifalar xususida to'xtalamiz.

Muammo nimada edi?

Mamlakatimiz bo'yicha filolog ilmiy kadrlar ham, til va adabiyot o'qituvchilari ham eng obro'siz kasb egalari bo'lib keldi. Bu – achchiq haqiqat. Buning sababi filologiyada

olib borilayotgan aksar tadqiqotlar ham, ona tili va adabiyot ta'limi ham jamiyat ehtiyojlari talablariga javob bermasligidir.

Ma'lumki, sobiq sho'ro tuzumining oxirgi davrida (taxminan 25–30 yil davomida) filologiya bo'yicha ilmiy ishlar tadqiqotchilarning tashabbuslari bilan, asosan, ilmiy daraja olish maqsadida olib borilar, fan xarajatlariga aslida aniq va tabiiy fanlarga ajratilgan mablag'lar asosida qoplanar, maqsadli talab va taklif munosabatiga e'tibor qaratmaydigan "sotsialistik filologiya" fani pirovardida to'la-to'kis inqirozga yuz tutgan edi. Aniqrog'i, ijtimoiylashmagan maqsad va foydasiz vazifalar asosida ish ko'rayotgan, natijalarini iste'molchilar so'ramayotgan jonsiz va tatbiqsiz tusdagi filologiya fani to'liq boqimanda sohaga aylanib qolgandi. Shuning uchun ham himoyaga olib kelinayotgan dissertatsiyalarga OAK tomonidan bildirilayotgan asosiy va haqli e'tiroz – ular natijalarining amaliyotga tatbiq etilmaganligi (aslida tatbiq etib bo'lmazligi) edi. Demak, yo tadqiqotlardan butkul voz kechish, yo davr talablariga mos izlanishlar olib borish zarurligi ayon bo'lib qolgandi. Ma'lumki, asl tadqiqotlar yo o'rganish obyektni takomillashtirishga, yoki undan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Demak, tilshunoslik o'rganish obyekti bo'lgan tilni takomillashtirish yoki undan foydalanish samaradorligini oshirish, adabiyotshunoslik adabiyotni takomillashtirish yoki undan foydalanish samaradorligini oshirishga muayyan darajada ko'maklashishi lozim. Tilshunoslikda ham, adabiyotshunoslikda ham o'rganish manbayining tadqiqot uchun tanlab olingan bir qirrasini, ya'ni o'rganish predmetini shunchaki tavsiflash (tadqiqotning eng oson yo'li) yo'lidan borilib, aslida tadqiqot obyektni takomillashtirish/undan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar berilmas edi (albat, tarjima nazariyasi, matnshunoslik va adabiy manbashunoslik kabi sohalarladi bir qator ishlar bundan mustasno. Lekin ular ham bayon etilgan fikrlar ko'p hollarda nazariyaligicha qolib ketar, amaliy tavsiyalar mazmunidagi ommabop risolalar ko'rinishini olmas edi).

FARMON,

(1-maqola)



Zarurat

Filolog ilmiy xodimlar va til-adabiyot o'qituvchilarini tayyorlash borasida asosiy muammo yo'nalishlar va ixtisosliklar klassifikatoridan kelib chiqqan holda ta'lim mazmunini yangilashda namoyon bo'ladi. Zotan, albat, universitetdagi o'quv fanlarini muvofiqlashtirish, ularning ta'limiy maqsadi, mazmuni va usullarini davr talablariga mos ravishda tashkil etish, yo'nalishlararo uyg'unlik, mutanosiblikni ta'minlash, shu bilan birga, o'ziga xos xususiyat va maqsadlarini oydinlashtirgan holda bozor talablariga mos kompetentli kadrlarni tayyorlash ishlarini tashkil etish mas'uliyati mavjud. Bunda, shubhasiz, ta'limga asos bo'luvchi fan yo'nalishlari, ularning taraqqiyot darajasi va natijalarini mukammal anglash, jahon tajribasini chuqur o'rganish, shuningdek, respublikamizda ishlab chiqilgan klassifikator asosida yo'nalish va mutaxassisliklarning xususiyatlarini chuqur bilish, o'quv rejalaridagi fanlar tizimini va o'quv dasturlarining mazmunini ushbu yo'nalish va mutaxassisliklar bitiruvchilariga qo'yilayotgan talablar asosida professional darajada ishlab chiqish talab etiladi.

Bugungi kunda dunyo miqyosida filologiya ilmi va ta'limi ularning tegishli mamlakatlardagi holatiga muvofiq ravishda o'zaro uyg'un rivojlanmoqda. Avval, shunga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladiki, filologiya fan sohasi sifatida til va adabiyot bilan bog'liq nazariy, ta'limiy va amaliy masalalar bilan shug'ullanadi. Shunga muvofiq, filologiya sohasining bir necha turi mavjud, har bir filologik ta'lim turi ijtimoiy hayotdagi tegishli muammolar bilan bog'liq o'ziga xos maqsad va vazifalarga ega. Oliy ta'limdagi tegishli bakalavriat yo'nalishlaridagi farqlanishlar ham shunga qaratiladi.

Amalning maqsadga muvofiqligi

Nazariy filologiya (filologiya va tillarni o'qitish yo'nalishlari) bo'yicha tayyorlanayotgan mutaxassislar kompetensiyasi tilshunoslik va adabiyotshunoslik bo'yicha fundamental bilimlarni egallash asosida ilmiy tadqiqotlar olib borish, mavjud nazariy filologik konsepsiyalar va alohida li-soniy, adabiy hodisa va jarayonlarni, turli shakldagi matnlarni turli nazariy hukm va xulosalar chiqarish uchun tahlil va talqin qilish, umumlashtirish, tegishli ilmiy ma'lumotlarni to'plash, olib borayotgan tadqiqot bo'yicha annotatsiya, referat tayyorlash, bibliografiya tuzish, mavzu va soha bo'yicha ilmiy munozara, himoya va muhokamalarda ishtirok etish, axborot va ma'ruzalar bilan chiqish qilish, ilmiy xulosalarni og'zaki, yozma va virtual tartibda (axborot tarmoqlariga) taqdim etish kabilarni o'z ichiga olib, bu vazifalar mamlakatimiz filologiya sohasining bosh nazariy yo'nalishi doirasida birlashadi hamda tayyorlanayotgan mutaxassislar faoliyati, asosan (!), amaliy tatbiq bosqichiga cha bo'lgan faoliyat hisoblanadi. Bu yo'nalishlar va mutaxassislar klassifikatorining gumanitar fanlar sohasiga mansub. Shu bois ushbu yo'nalishda hozirgi o'zbek tili qurilishining nazariy asoslari, til strukturasi bo'yicha bilim berishga mo'ljallangan o'quv predmetlari o'qitiladi.

Ta'limiy (pedagogik) filologiya (til va adabiyot yo'nalishlari) bo'yicha tayyorlanayotgan mutaxassislar zimmasida hozirgi o'zbek tilining adabiy me'yorlarini chuqur o'rganib, ta'limning quyi (umumta'lim, o'rta maxsus ta'lim) bosqichlarida o'quvchilarga ona tilining adabiy me'yorlarini singdirish, ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalariga tayanib, umumta'lim va kasbiy ta'lim muassasalarida ona tili va adabiyot predmeti bo'yicha o'quv mashg'ulotlari va sinfdan tashqari

VAZIFALAR VA IJRO

ishlarni bajarish, tegishli metodika asosida ona tili va adabiyot bo'yicha mashg'ulotlar va sinfdan tashqari ishlar uchun o'quv-metodik materiallar tayyorlash, adabiy til me'yorlarini ommalashtirish va targ'ib qilish bilan shug'ullanish yotadi. Bu esa ushbu yo'nalishda hozirgi o'zbek tilining adabiy me'yorlari bo'yicha bilim berishga mo'ljallangan o'quv predmetlari ta'limi zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Shuningdek, bugungi kunda rivojlangan davlatlarda filologik faoliyatning uchinchi bir sohasi – amaliy filologik faoliyat turi ham shakllanib ulgurdi va jadal rivojlanmoqda. Ilg'or mamlakatlarda amaliy filologik faoliyat turi bo'yicha mutaxassis kadrlar tayyorlanmoqda, ko'plab amaliy lingvistik tadqiqotlar bajarilmoqda. Universitetimizda faoliyatini boshlagan o'zbek-ingliz tarjima, matnshunoslik va manbashunoslik yo'nalishini shunday amaliy yo'sindagi soha deyish mumkin. Nazarimizda, respublikamiz iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi yuksalish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tez rivojlanayotganligi bizda ham amaliy filologik ta'lim va faoliyatni har tomonlama rivojlantirishni o'ta dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga qo'yadi. Bu yo'nalishda o'zbek tili ta'limi amaliy o'zbek tili maqomida, o'quv predmetlarining mohiyati va maqsadi ham shunga monand bo'lmog'i lozim. Masalan, mazkur yo'nalishlarda bir xil nomdagi "Tilshunoslikka kirish", "Adabiyotshunoslikka kirish", "O'zbek adabiyoti tarixi", "Jahon adabiyoti", "Dialektologiya", "O'zbek tili tarixi", "Hozirgi o'zbek adabiy tili" o'quv predmetlari bo'yicha ta'lim mazmuni va maqsadini aniq belgilab olishni taqozo etadi. Holbuki, bu masala, farmon e'lon qilinganiga bir necha yil o'tganiga qaramay oydinlashtirilmayapti. Bu o'quv predmetlarining mazmuni va maqsadi bo'yicha muammoni kun tartibiga qo'yish, sohaning yetuk mutaxassislarini bunga jalb etish va ularning o'rinni takliflariga quloq tutish, xorijiy tajribalarni o'rganish zarurati dolzarbligicha qolayotir. Holbuki, yuqorida sanalgan

va boshqa o'quv predmetlarida yo'nalishning maqsadi va mohiyatidan kelib chiqqan holda ularning mazmun-maqsadi aniq belgilab olinishi kechikayotgan vazifalaridan. Nazarimizda, nazariy filologiyadagi o'quv predmetlari o'rganish obyektining tadqiqi muammolariga yo'naltirilgan mazmun kasb etishi va nazariy tadqiq metodikasiga urg'u berilishi lozim. Shuningdek, til va adabiyot ta'limi yo'nalishlarida fan ta'limiy muammo va vazifalar rakursida tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

"Hozirgi o'zbek tili" va "Hozirgi o'zbek adabiy tili"

Mazkur yo'nalishlardagi hozirgi o'zbek tili bo'yicha o'quv predmetlari(filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) yo'nalishida "Hozirgi o'zbek adabiy tili" va til-adabiyot ta'limi yo'nalishida "Hozirgi o'zbek adabiy tili")ni aynanlashtirishda o'tgan asrning 80-yillarida yaratilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsliklaridagi "adabiy" so'zi asos bo'lib keldi. Farmonda esa unga yechim berish zaruratiga ishora bor. Zotan, yuksak malakali kadrlar tayyorlash tizimidagi boshqa-boshqa maqsadlarni zimmasiga olgan akademik yo'nalishlarda turdosh o'quv predmetlari mazmunining ixtisoslashmay qolayotganligi – katta muammo.

Albatta, har bir davrning o'z talablari, fan va ta'lim zimmasiga yuklayotgan ijtimoiy buyurtmasi bo'lishini nazardan soqit qilmasligimiz kerak. Zikr etilgan darslikning birinchisi yaratilganligiga 37, ikkinchisining ilk nashri yaratilganligiga 50 yilcha bo'ldi. Qariyb yarim asrdan ortiq vaqt davomida esa o'zbek tilshunosligi fani yuksalganligini, fanimiz tilni tadqiq qilish borasida chuqurlashganligini va, shunga muvofiq ravishda, uning ta'limida ham yo'nalish va mutaxassisliklar bo'yicha ixtisoslashuv borasida davr talab-

lariga mos ravishda harakatlar bo'layotganini ortiqcha sharhlashga hojat yo'q. Ammo hammualifligimizda 2010-yilda yaratilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligining nomi va mazmunini sharhlashga va oydinlashtirishga to'g'ri keladi. Unga mas'ul muharrirlik qilgan filologiya fanlari doktori, professor Hamid Ne'matovning darslikka yozgan so'zboshisida aytilganidek, o'quv fanining nomi ("Hozirgi o'zbek adabiy tili") XX asrning ikkinchi yarmida yetakchilik qilgan o'zbek formal tilshunosligi ta'sirida shakllangan va an'ana sifatida o'quv rejasidan o'quv rejasiga ko'chib kelmoqda. Shuning uchun fanimizda mavjud bo'lgan ikki ilmiy yo'nalish – formal va substansial tahlil haqida qisqa ma'lumot berish zarur.

Tilshunoslikda XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida formal yo'nalish ijtimoiy ehtiyoj natijasida shakllangan va o'z oldiga, asosan:

- ommaviy savodxonlikni ta'minlash;
- zamonaviy adabiy til me'yorlarini ishlab chiqish;
- adabiy til me'yorlarini ommalashtirish kabi o'z davri uchun o'ta zarur masalalar yechimini maqsad qilib qo'ygan, tilshunoslik nazariyasi ham, ona tili ta'limi ham mana shunga xizmat qilar edi. Jamiyat oldida ommaviy savodxonlikni ta'minlash, shevalararo farqlarni bartaraf qilish, adabiy tilni ommalashtirish, til va xalqning tarixiy yozma yodgorliklarini nashr etish va yoyish, ta'limni zamonaviy usullarda yo'lga qo'yish kabi amaliy vazifalar turgan paytda eng samarali va eng qulay lingvistik tavsif va ta'lim yo'li mana shu formal usul edi. Shuning uchun jahonning barcha ilg'or davlatlari tilshunosligida XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab bu ilmiy yo'nalish keng ommalashdi. O'zbek tilshunosligida bunday yo'nalishning tamal toshlarini Abdurauf Fitrat, Elbek, Qayum Ramazon kabilar qo'ygan bo'lsalar-da, uning keng va izchil ommalashishi professor Ayub G'ulomov nomi va faoliyati bilan bog'liq.


XX asrning boshi va o'rtalarida o'zbek madaniyati va fani uchun juda zarur bo'lgan formal tilshunoslik ta'siri ostida oliy o'quv yurtlarining filologik yo'nalishlarida asosiy maqsad o'zbek adabiy tili me'yorlarini ommalashtirish bo'lganligi sababli o'quv fani ham shunday nomlangan. Biroq bugungi kunda davr, maqsad va vazifalar tamoman o'zgargan, tilshunoslik zamon talabi bilan uzviy bog'liqlikda yangi tahlil usullariga o'tib ketgan bo'lsa ham, o'quv fanining nomlanishi darsliklarda saqlanib qolmoqda.

Darslik o'zbek formal tilshunosligi yutuqlariga tayanib, funksional-struktural (Praga strukturalizmi) tahlil usullarini ongli, izchil, dialektik tamoyillar bilan to'ldirib, tilga tafakkurni shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi, nutqiy muloqotda son-sanoqsiz shakl va ko'rinishlarda voqelanadigan, har bir voqelanish ko'rinishi o'ziga xos maqsad va vazifaga ega bo'lgan imkoniyatlar xazinasini sifatida yondashadigan o'zbek substansial tilshunosligi talqinlarini o'z ichiga oladi. Davr bugun

yosh avlodning mustaqil fikrlash va ijodiy tafakkur ko'nikmalariga ega bo'lishini talab qiladi. Bunday ko'nikma va malakalarni shakllantirishning asosiy vositalaridan biri esa tarbiyalanuvchilarga o'zbek tili imkoniyatlari xazinasini ochish, undan ijodiy va unumli foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishdir. Bu ehtiyoj hozirgi kunda o'zbek tilshunosligida shakllangan va tilimizning asosiy sathlari birliklarining nisbatan yaxlit tavsifini bergan ilmiy yo'nalish – substansial tahlil usullari bilan qondirilishi mumkin. Shuning uchun davr va oliy ta'lim DTSlari talablariga mos mazkur dastur asosida tuzilgan nazariy filologik ta'limda asosiy e'tibor (talabalarga adabiy til me'yorlarining nazariy asoslarini singdirish vazifasini o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishiga qoldirib) li-soniy imkoniyatlar xazinasini tadqiq qilish va uni boyitish, bu imkoniyatning nutq turli ko'rinishlariga xoslanish muammolari va yechimlarini o'rgatish mazmunida bo'lmog'i lozim. Mohiyatan, "Hozirgi o'zbek adabiy tili" tushunchasi va atamasi hozirgi o'zbek tilining ma'noda nutqiy ko'rinishlaridan biri, ya'ni adabiy nutqning nomi.

XX asrning keyingi choragida o'zbek tili tadqiqida lison va nutqni izchil farqlash, o'zbek tilini boshqa tillar andozalaridan xoli ravishda o'rganish borasida katta yutuqlar qo'lga kiritildi. O'zbek tili strukturasi chuqur va izchil tadqiq etildi. Ko'plab dissertatsiya himoya qilindi. Fan yutuqlarini ta'lim va ishlab chiqarishga tatbiq qilish nuqtayi nazaridan pedagogik va filologik yo'nalishlar maqsad va vazifalarining aniq chegaralanishi uchun lingvistik baza, ta'minot vujudga keldi. Shuningdek, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan ta'lim bosqichlarida o'qitiladigan fanlarning nomi va mazmunida uzviylik hamda uzluksizlikni ta'minlagan holda takroriyliklardan voz kechish talabi qo'yilishi nazariy filologiya (ya'ni o'zbek filologiyasi) bakalavriyat yo'nalishida mazmunan til strukturasi (adabiy til me'yorlari emas) ta'limiga mo'ljallangan, nomi mazmuniga muvofiq bo'lmagan va o'zgartirishga chayir an'anaviy tafakkurimiz yo'l qo'ymayotgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" o'quv predmeti atamasini "Hozirgi o'zbek tili" shaklida berish imkoni vujudga keldi. Bu holat Til va adabiyot (hozirgi O'zbek tili, adabiyoti va folklori) ilmiy-tadqiqot institutida uzoq yillar mavjud bo'lgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" sho'bas(sektori)ning XX asrning keyingi choragida "Hozirgi o'zbek tili" bo'limiga aylantirilganligi bilan ham to'la ma'noda hamohang.

Baxtiyor MENGLIYEV,
filologiya fanlari doktori,
professor
G'ofir HAMROYEV,
pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori



Sinab ko'ring

Aniq bir metodik tavsiya berilmaydigan mashg'ulot, albatta, "quruq" dars bo'lib qoladi. Ayniqsa, amaliy usullar yordamida mavzuni tushuntirish o'quvchilar bilimini mustahkamlaydi. Masalan, "Rebus", "Daraxt", "Yumaloq xat", "Zinama-zina" kabi metodik usullar yordamida 45 daqiqa qiziqarli va mazmunli tashkil etiladi.


“Yumaloq xat” yozib, “Zina”lardan ko‘tariling

“Yumaloq xat” usulidan 6-sinf o'quvchilari uchun darslarda foydalanishimiz mumkin. Bunda o'quvchilar alohida qog'ozga do'stlari uchun xat yozadi va yumaloqlab o'qituvchiga topshirishadi. Xatda o'quvchilar ona tili fanida o'zlashtirilishi biroz murakkab bo'lgan mavzu — “Fe'lining nisbat shakllari”-dan unumli foydalanishlari kerak. O'qituvchi barcha xatlarni pochta qutisiga yig'ib chiqadi va o'zi o'quvchilarga pochtagi sifatida tarqatadi. O'quvchilar xatni ochadilar va unda yozilgan gaplardagi nisbat qo'shimchalarini turlarga ajratadilar. Nisbat shakllarini turlarga ajratishda esa quyidagi jadvaldan foydalanish mumkin:

Aniq nisbat	O'zlik nisbati	Majhul nisbat	Birgalik nisbati	Orttirma nisbat

Topshiriq bajarilgach, o'qituvchi qog'ozlardagi javoblarni tekshirib chiqadi va o'quvchilarni baholaydi. Bu usul dars mavzusi bolalar xotirasida yaxshi saqlanishi uchun xizmat qiladi.

“Zinama-zina” metodi ham bor, undan foydalangan holda “Fe'l va uning ma'noviy guruhlari” haqida dastlabki bilimlarimizni tekshirishimiz va mustahkamlashimiz mumkin. Ushbu metodda o'quvchilar mavzu yuzasidan olgan bilimlarini bosqichma-bosqich yozib chiqishlari kerak bo'ladi. Bunda quyidagi sxema bizga yordamga keladi:



GIBRID darsliklar

ko'plab maqolalar yozdik. Ulardan ba'zilari chop etilib, keng muhokamalarga sabab bo'ldi. Ayniqsa, menga Namangan tumanidagi 21-IDUM ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Gulnoza Xoldorova va Samarqand yuridik kolleji muallimasi Dilaf-ro'z Soipovanning 5-sinf "Ona tili" darsligi haqidagi fikrlari va takliflari juda jo'yali tuyulgandi. Afsuski, kamchiliklarni tuzatib darsliklarni takomillashtirish o'rniga, birato'la inqilobiy o'zgarishlar qilib yuborishdi. Natijada, ko'rib turganingizdek, zamonaviylik talabi asosida xalqaro libos kiydirilib, yangi shakl va mazmundagi darsliklar paydo bo'ldi. Ularda har bir tilning yuragi bo'lmish grammatika va boshqa bo'limlariga e'tibor ikkinchi, balki oxirgi darajaga tushirib qo'yilgan. Nima emish, o'quvchilar kelajakda tilshunos bo'lmas emish!? Ushbu mantiqdan kelib chiqiladigan bo'lsa, ular kelajakda matematik, ximik, biolog, geograf bo'lmaydi deb, boshqa fan darsliklarini ham gibridlashga to'g'ri keladi, shekilli. Masalan, ona tili darslarida o'quvchilarga grammatika shunchaki ega-kesimni topishlari uchun o'rgatilmaydi. Balki, grammatik tahlil xuddi matematik analiz kabi ularda qiyoslash, solishtirish, tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish uchun juda zarur pedagogik amaliyot hisoblanadi. Qolaversa, ona tilini chuqur o'rganishni istaydigan o'quvchilarimiz borligini ham unutmaylik. Ona tili fani bo'yicha viloyat olimpiadalarida juyri a'zosi bo'lib qatnashganimda, o'quvchilar grammatikani ayrim o'rinlarda biz - ustozlardan ham ko'ra puxta bilishlarini ko'rib qoyil qolganim, syunganim ayni haqiqat. Shunday ekan, nega endi bolalarimizning bilim doiralari sun'iy ravishda cheklab qo'yishimiz kerak? Bu - o'yab ko'rsa arziydigan savol.

"Bugun darsliklar haqida bo'layotgan gap-so'zlar asossiz emas... To'g'ri, ona tili tilshunoslik emas, ammo undan xoli bo'lishi ham mumkin emas... Grammatik bilimlar silsilasida me'yor saqlanishi lozim", deb yozadi filologiya fanlari doktori Baxtiyor Mengliyev.

O'zbek tili grammatikasi tilshunoslik fanining asosiy bir bo'limi sifatida o'zining murakkab tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Ulug' jadid ziyolisi Abdurauf Fitratning "O'zbek tilining nahvi va sarfi" deb nomlangan kitobi bu ilmnning tamal toshini qo'yib berdi. Shundan keyin U.Tursunov, G'.Abdurahmonov, X.Komilova, M.Asqarova, A.Muxtorov, H.Jamolxonov, Sh.Rahmatullayev singari o'nlab o'zbek tilshunoslari ushbu ilmiy qiyomiga yetkazdilar. Grammatika bilan bir qatorda fonetika, leksika, dialektologiya, etimologiya va frazeologiya singari tarmoqlar ham gurkirab rivojlana bordi. Bir so'z bilan aytganda,

muazzam o'zbek tilshunoslik maktabi yaratildi. O'rta maktab darsliklarida ham ana shu bilimlarning elementar tushunchalarini shakllantirishga katta e'tibor berila boshlandi. Ammo hozir ba'zi ustozlarimiz aytayotganlaridek, ona tili darslari grammatikavozlikka aylanib ketmadi. Ko'p hollarda darslar shunchaki mashqlarni ko'chirish va matnlarni o'qish bilan cheklanib qolganiga o'zimiz ko'p bor guvoh bo'lganmiz. O'quvchilarning o'zbek grammatikasi bilan haqiqiy tanishuvi mustaqillik yillarida sodir bo'ldi. Maktablarimizda grammatika sinchiklab o'rganila boshlandi. Buning sababi qanaqadir yangicha pedagogik yoki metodik yondashuv emas, balki oliy o'quv yurtlariga qabulning test imtihonlariga o'tilishi bo'ldi. Davr talabidan kelib chiqqan abituriyentlar o'zbek tili grammatikasini chuqur o'rgana boshladilar. Bu esa o'z navbatida ayrim noxush holatlarga ham sabab bo'ldi. Repetitorlardan puxta bilim olayotgan bolalar maktablaridagi ayrim chalasavod o'qituvchilarining misini chiqara boshladi. Men hatto, maktabida ona tili fanini yaxshi o'zlashtirgan talabaning mavzu yuzasida domlasi bilan bahslashib qolgan haqida ham eshitdim. Bir sobiq o'quvchim menga bu haqda shunday degandi: "Domla, institutda o'zbek tili darsligiga umuman qaraganim yo'q. Sizdan eshitganlarimni aytib berib, imtihonlardan faqat "besh" baho oldim. Bu uchun sizga katta rahmat". Tabiiyki, vujudga kelgan yangi vaziyat kimlargadir juda-juda yoqmay qoldi. Ular endi ona tili fanini ilmiy jihatdan puxta o'rganish emas, darsliklarni jo'nlashtirib, muammolardan qochish yo'lini taklif qilishmoqda. Bu usul rivojlangan G'arb mamlakatlari keng tarqalgan bo'lib, u joylarda bizdagi singari mushkulliklar deyarli uchramaydi. Masalan, ingliz tilida yozilgan oddiy manbalarni ko'rib chiqsangiz, aytarli biror xato yoki nuqson topolmaysiz. Rus tilidagi matnlarda ham xatolar deyarli yo'q. Ammo o'zbek tilimizdagi yaratilgan matnlarni bir ko'rib chiqing, hatto tuppa-tuzuk ziyolilarimizning bitiklarida; ko'chalardagi, davlat idoralariidagi yozuvlarda ham g'ij-g'ij xato. Eng qizig'i shundaki, bugun x bilan h tovushining farqiga bormaydigan, tutuq belgisini tan olmaydigan kishilar bizga ona tilimizni qanday o'rgatish haqida "maslahat" bermoqdalar.

Prezidentimiz fikr bildirgan keyingi kunlarda avval Singapur va yapon ta'lim tizimini maqtap yurgan og'aynilar birdaniga fin darsliklariga oshig'-u mahliyo bo'lib qolishdi. Xalq ta'limi vazirligining yaqinda e'lon qilingan "Xalq ta'limi tizimini rivojlantirish strategiyasi" loyihasida darsliklar borasida quyidagi vazifalar belgilangan:

• 2025-2026 o'quv yiliga qadar 5-11-sinflarda aniq va tabiiy fanlar-

dan xalqaro tan olingan va mahalliy-lashtirilgan darsliklarni joriy etish;

• Xalqaro tan olingan ta'lim sohasi tashkilotlari bilan izchil hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali, ilg'or xalqaro tajribalarni joriy qilish;

• Aniq va tabiiy fanlar yo'nalishlarida xalqaro talablarga javob beruvchi o'quv dasturlari va o'quv adabiyotlarini umumiy o'rta ta'limga soddalashtirilgan tartibda joriy qilish.

Ko'rinib turibdiki, loyihada gumamitar fanlar, ayniqsa til darsliklarini soddalashtirish haqida biror gap aytilmagan. Aytilgan taqdirda ham, tizimimizdagi jiddiyashgan dardlarni davolash uchun endi yuzaki choralar yordam bermaydi. Uni tuzatish uchun chuqur amaliy islohotlar zarur.

To'g'ri, ilg'or xorij tajribasini o'rganib, joriy etish kerakdir, ammo buning uchun, avvalo, o'sha xorij darajasiga ko'tarilib olish lozim emasmi? Bu borada hayotdan bitta jonli misol keltiraman. Maktablarimizda Kundalik.com baholash tizimi joriy qilinyapti. Ammo bu o'qituvchilarni o'ta-onalar uchun chinakam azob va asabbuzarlikka aylanib ketdi. O'zingiz o'yab ko'ring, bizdagi internet tezligi va elektr toki ta'minotidagi uzilishlar bilan bu tizimga o'tib bo'ladimi? Ana endi o'quvchida na kundalik bor va na Kundalik.com?!

Bir paytlar xorijga taqlid qilib, xalqning trillion-trillion so'm pullarini akademik litsey va kollejlarda quramiz deb yelga sovrushigan edi. To'g'ri, kollejlarda tugatilib, binolar bekor ketmadi, qayerdadir turarjoy, qayerdadir kasalxona, qayerdadir tug'ruqxona bo'ldi. Ammo bundan ta'limga qanday naf keldi?! Shu ma'noda, hadeb xorijga taqlid qilaverish ham aqldan emas-da.

2022-2023-o'quv yiliga mo'ljal-langan "Ona tili" fanidan sinflar kesimi bo'yicha yangi ish rejalarini kuzatsangiz, unda grammatikaga va umuman til fanining boshqa bo'limlarini o'rganish uchun ham sanoqli soatlar ajratilganini ko'rasiz. Axir, mavzular haqida tushuncha berilmasa, o'quvchilar savol va topshiriqlarni qay tariqa bajaradi?! Ilm o'rganishni o'ta-bobolarimiz igna bilan quduq qazishga mengzashgan. Uni ketmon yoki ekskavator bilan qazigandek qilib o'rganish xomxayoldan boshqa narsa emas. Bu masalaning bir tomoni. Uning boshqa yana bir qancha qirralari ham borki, muhtaram domlamiz B.Mengliyev ular haqida ham to'xtalib o'tgan va buni "Tajriba-sinov ishlari" deb atagan:

"Bir vaqtlar ustozlarimiz darslik yozishganining guvohi bo'lganmiz. Ular bir yil mobaynida har bir darsni belgilangan maktablarda sinovdan o'tkazishar edi".

Bolaligimda mening kekxa buvim bo'lardi. U kishi ipakchilik bilan shug'ullanardi. Xom ipakni yigirib,

pishitib, bo'yab, kalava qilib, kashta-do'z'larga sotardi. Buvimning bir ishi diqqatimni tortardi. Ipakni bo'yashdan oldin hammasini emas, kichik bir o'ramini bo'yab ko'rardi. Uni oftobda quritib, oq mato bilan bo'yogning sifatini tekshirardi. Agar bo'yog sifatli bo'lsa, keyin qolgan barchasini qozonga solardi. Bo'lmasa, hammasini to'kib tashlab, bozordan boshqa bo'yog keltirib, barcha ishni qaytadan boshlardi. Shu bois bo'lsa kerak, buvimning iplariga xaridor ko'p bo'lardi. Buni eslaganimning sababi shuki, hozirgi ayrim ustozlarimizda qari buvimnikicha zehniyat yoki hafsa yo'qmi ekan, degan xayollarga boraman. Maktab darsliklari ommaviy nashr etilishidan oldin, domla B.Mengliyev yozganidek, tor doirada tegishli tajriba-sinovlardan o'tkazilishi va keyin tasdiqlanishi zarur emas-midi?!

Yangi darslik tarafdorlari o'qituvchilardan kitoblardagi kamchilik va nuqsonlarni ilmiy jihatdan asoslab berishni talab qilishmoqda. Bu borada ham ular mutlaqo nohaq. O'qituvchi olim emas, u oddiy muallim. Darsliklarni tahlil-ekspertiza qiladigan oliy ta'lim dargohlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari, malaka oshirish institutlari, ta'lim markazlari, vazirliklar, bu uchun davlat xazinasidan maosh oladigan professorlar, dotsentlar turib, shu ishni ham oddiy o'qituvchi zimmasiga yuklash adolatdan bo'lmasa kerak, deb o'ylayman. Muammo ko'tariyaptimi, demak, gaplarda jon bor. O'zi qimmatbaho, sifati shubhali darsliklar faqat kimlargadir yoqqani uchun millionlab nusxalarda chop etilmasligi kerak.

Bu borada mening yana bir taklifim: ustozlarga novator yoki konservator yorlig'ini yopishtirib, ikki qarama-qarshi qutbga ajratish ham durust emas. Chunki hammamizning maqsadimiz bitta - yosh avlodni o'zimizdan ko'ra aqlliyoq, bilimliyoq, odobliyoq qilib tarbiyalash. Bunda behuda bahslarga chek qo'yib, kim aqlliyoq ekanligini aniqlashni vaqtning ixtiyoriga qo'yib beraylik. Bundan buyon kengaytirilgan nufuzli ilmiy-pedagogik jamoa tomonidan yaratilajak yangi darsliklar mutaxassis pedagoglar, tilshunos olimlarning nazaridan batafsil o'tkazilib, oldin cheklangan bir miqdorda nashr etilib, sinab ko'rilib, ana shundan keyingina Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlansin. Nega desangiz, tajriba-sinovdan o'tmagan xom-xatala gibrid darsliklar asta-sekin bo'lsa-da, ta'lim sifatini pasaytira boradi. Zero, "Ma'rifat" gazetasi yaqinda yozganidek, sifatsiz o'tilgan har bir soat dars kelajakka qilingan xiyonatdir.

Xudoyberdi KOMILOV,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi,
faxriy pedagog

Sinab ko'ring

YOZMA NUTQ KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRAMIZ

Ona tili darslarida yozma nutqni o'qitish o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, tafakkurini kengaytiradi. Shuning uchun o'qituvchi "... o'tilgan mavzu asosida o'quvchilarning nutq ko'nikmasini o'qitishga e'tibor berishi lozim". Ayrim o'qituvchilar mustaqil, ijodiy ishda yetarli e'tibor bermaydilar. Natijada o'quvchilar o'z fikrlarini og'zaki va yozma bayon qilishda qiynaladilar.

Kuzatishlar ko'p hollarda og'zaki nutqi har tomonlama o'sgan o'quvchilarning yozma nutqi ham rivojlangan bo'lishini ko'rsatmoqda.

IV–VIII sinflarda o'quvchilarning yozma nutqini o'qitish maqsadida turli xarakterdagi mustaqil ishlardan foydalaniladi. Jumladan, ma'lum bir grammatik qoida asosida matn mazmunini qayta hikoya qilish; rasmlar, diafilmlar, kinofilmlarda ko'rganlari yoki shaxsiy taassurotlari va eshitganlari asosida turli xarakterdagi insholar yozish, o'qilgan badiiy asar, ko'rilgan film va spektakllarga taqriz yozish va h.k.

O'quvchilarning saviyasi oshgan sari bog'lanishli nutq malakasi ham kengayib boradi. IV sinf o'quvchisi ma'lum bir grammatik talab asosida (yozma) matn mazmunini qayta hikoya qila oladigan, rasmlarda, diafilmlarda ko'rganlari asosida yozma matn tuza oladigan, shaxsiy taassurot va eshitganlarini bayon qilib bea oladigan bo'ladi.

O'quvchilar o'z fikrini erkin bayon qilishi uchun quyidagilarga ega bo'lish-

lari lozim:

- yeterli darajadagi so'z boyligi;
- ona tilidan o'rganilgan qoidalarini amalda qo'llay olish malakasi;
- gapda so'zlarni o'rinli ishlatish, gapni grammatik jihatdan to'g'ri tuzish, gaplarning bir-biriga bog'lanishini hisobga olgan holda bog'li matn tuza olish malakasi;
- o'z nutqida tilning tasviriy vositalaridan o'rinli foydalana olish malakasi;
- to'g'ri yozish ko'nikmasi.

O'quvchilarning yozma nutqini o'qitishda insholarning ahamiyati katta. O'quvchilar o'z taassurotlari asosida mustaqil insho yozishga qiziqadilar. Masalan, "O'lkamizga bahor keldi" mavzusi-da insho yozdirish uchun o'qituvchi insho mavzusini uni yozishdan 10–15 kun oldin o'quvchilarga ma'lum qiladi. Ular bu vaqt ichida tabiatda sodir bo'ladigan o'zgarishlarni kuzatadilar va o'z fikr-mulohazalarini kuzatishlar daftariga yozib boradilar. Vaqti-vaqti bilan o'qituvchi inshoga tayyorgarlik qanday tartibda olib borilayotganini so'rab turadi.

"Ekskursiya" mavzusida insho yozish uchun ham xuddi shunday tayyorgarlik talab etiladi. O'qituvchi, avvalo, bolalarga uyushtiriladigan ekskursiyaning maqsadini, nimalarga e'tibor berish lozimligi, taassurotlarini yozib borish kerakligini uqtiradi.

O'quvchilarni mustaqil ravishda bayon va insho yozishga o'rgatish maqsadida o'qituvchi mustaqil ishning quyidagi bosqichlarini o'tashga da'vat etadi:

- matnni diqqat bilan o'qib chiqish va tushunmagan so'zlar ma'nosini bilib olish;
- matn mazmuniga qarab, bayon rejasini tuzish;
- reja asosida matn mazmunini og'zaki hikoya qilishga tayyorlanish;
- matn mazmunini izchil bayon qilish so'z, so'z birikmasi, gaplar tanlash;
- yo'zilgan bayonni diqqat bilan o'qib chiqish; o'z-o'zini nazorat qilish.

O'quvchilarning mustaqil ishlari o'zlarini nazorat qilishda ta'limiy bayon matnini darslikdan tanlash yaxshi natija beradi, chunki barcha o'quvchilar matnni mustaqil o'qib

chiqish imkoniga ega bo'ladilar.

O'qituvchilar o'quvchilarning yozma nutqini o'qitishga har bir darsda e'tibor berishlari zarur. Mustaqil ishning bog'lanishli nutqni o'qitishga yordam beradigan quyidagi turlaridan foydalanish tavsiya qilinadi:

1. Biror grammatik, orfografik qoida talabiga muvofiq gap tuzish, misollar topish. O'qituvchi bunday misollarni adabiyot darsliklaridan, shuningdek, gazeta va jurnallardan tanlashi mumkin. Adabiyot darsida badiiy asar o'rganilgan ekan, shu parchadan ona tilining ma'lum bir qoidasiga taalluqli so'zni izohlab o'tish yoki misolni esda saqlab qolish, lozim bo'lsa, bu misolni daftariga ko'chirib olish.

2. Tayanch so'zlar yoki so'z birikmalari yordamida bog'lanishli matn tuzish. Bunday so'zlar va so'z birikmalarini ko'chma doskaga yozish yoki ko'rgazma shaklida sinfga olib kirish maqsadga muvofiqdir.

Shoiraxon HASANBOYEVA,
Farg'ona tumanidagi 1-maktabning
ona tili va adabiyot o'qituvchisi

Tajriba

Adabiy o'qish darslarini qanday jonlantiramiz?

VUNESCO tomonidan 1957-yilda "o'qish savodxonligi" atamasi qabul qilingan bo'lib, o'sha davrda bu atama voyaga yetgan insonning o'qish va yozish malakasiga ega ekanligini anglatar edi.

Jamiyat rivojlanib, hayot o'zgarib, inson oldiga qo'yayotgan talablar oshgani sari, atamalarining mazmuni ham o'zgarib boradi. Bugungi kunga kelib o'qish savodxonligi atamasi shaxsning tayanch ma'lumoti, uning o'zi yashab turgan jamiyat bilan hamkorlik qila olish qobiliyati, ta'limga oid masalalarni va hayotiy muammolarni yecha bilishga tayyorligi, o'z faoliyati davomida turli vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan harakatlar algoritmini tuza olish ko'nikmasining shakllangani, o'z savodxonlik darajasini baholay olish, ta'lim olishni davom ettirib, o'z-o'zini rivojlantirishga intilish, va nihoyat, kelajagini belgilay olish ko'nikmalarini qamrab oladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkin, bugungi kunda ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri o'quvchilarda kun sayin o'zgarib turadigan tabiiy va ijtimoiy muhit sharoitida yashash va faoliyat yuritishga tayyorlik ko'nikmasini shakllantirish, shaxsni hayotda o'z o'zini to'pala bilishga o'rgatishdir.

Dunyo miqyosida olib borilayotgan PISA tadqiqotlarining asl maqsadi ham 15 yoshli o'smirlar orasida aynan ana shu – o'qish savodxonligi darajasini o'rganish, ya'ni o'smir yoshidagi maktab o'quvchisining o'qib tushunish,

matnda yashiringan axborotni izlab topish, tabiat va jamiyat hodisalariga nisbatan shaxsiy fikrini bildira olish, oldiga qo'yilgan muammoning yechimini topa olish kabi ko'nikma va malakalarning shakllanganlik darajasini o'rganishdir. Shunday ekan, o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rganuvchi sinflarda adabiy o'qish darslarining ahamiyati nechog'lik katta ekanligini har bir o'zbek tili o'qituvchisi his qilishi lozim.

Adabiy o'qish darslarini qanday qilib jonlantirish, o'quvchilar ongida bu darslarga va umuman kitob o'qishga bo'lgan intilishini oshirish mumkin? Bu savolga javob topish uchun o'z tajribam bilan bo'lishmoqchiman.

Avvalo adabiy o'qish darslarining maqsadini aniqlab olaylik, nazarimda maqsad uchta katta guruhga bo'linadi:

1. Matn bilan ishlash ko'nikmasini hosil qilish, undagi asosiy fikrni aniqlab olish, matnni qismlarga bo'la olish va bu qismlarga sarlavha qo'ya olish, lug'at bilan ishlash.

2. Nutq o'qitish: fikrlay bilish, o'z fikrini asoslay olish, dialog va monolog olib borish malakalarini hosil qilish.

3. Ifodali o'qish: oquvchining talafuziga e'tibor berish, muallif tuyg'ularini his qila olish, so'z urg'usini, ma'no urg'usini qo'ya bilish, o'qish davomida tin olish(pauza)ga o'rgatish.

Mana shu maqsadlarni har bir dars-

da izchillik bilan amalga oshirib borish, bu yo'lda zamonaviy pedagogika taklif qilayotgan hamma usullarni qo'llash sizning adabiy o'qish darslaringiz esda qolarli darajada qiziq o'tishiga, o'quvchilarda kitob o'qishga qiziqish ortishiga olib keladi. Diqqatingizga intellekt-xarita tuzish usulini havola qilmoqchiman.

Intellekt-xarita usuli o'qib chiqilgan matn mazmunini grafik shakllantirish demakdir. Aslida juda sodda va oson usul. O'qib chiqilgan matn sarlavhasini eslashdan boshlaymiz, asosiy mazmun yoki boshqacha qilib aytganda mavz-

ini aniqlashtirish, qahramonlar ismini eslash, tashqi ko'rinish tasviri asosida rasm chizish yoki oldindan tayyorlangan rasmlardan foydalanish, voqealar ketma-ketligini eslash va yozib chiqish, va nihoyat o'qilgan matndan olgan taassurotlarimizni aniqlashtirish intellekt-xarita tuzishdagi asosiy ishlardir. O'quvchilar uchun bunday xarita tuzish juda maroqli jarayon, chunki bunda turli rangli flomaster, marker, qalam va boshqalardan foydalanish, fikrni rasm, grafika yoki so'z bilan ifodalash, olgan taassurotlarini yozib qo'yish, xarita tuzishga o'z ulushini qo'shishda istalgan qobiliyatini namoyish qilish imkonini bor. Masalan:



Yordamlashdi → maqtandi → uyalib qoldi.

Yaxshi ishlar maqtanish uchun qilinmaydi.

Intellekt-xarita yaratish ko'p vaqt talab qilmaydi, o'quvchilarning jamoa bo'lib ishlashga, ijodiy fikrlashga o'rgatadi va o'qiganlarini qayta hikoya qilishni osonlashtiradi.

Intellekt xarita va shunga o'xshash usullar faqatgina adabiy o'qish darslarimizni boyitib qolmay, o'quvchilarning o'qish savodxonligi oshishiga, ularni kitob o'qishga qiziqitirishga xizmat qiladi deb o'ylayman.

5-sinf darsligida berilgan Farhod Musajonov qalamiga mansub "Yaxshilik" hikoyasi o'qilgach quyidagidek intellekt-xarita tuzish mumkin.

Mas'uda RASULOVA,
Yashnabod tumanidagi
212-maktabning o'zbek tili fani
o'qituvchisi

Muammo

Tillar o'zining tovushlar tizimi va grammatikasining boyligi/kambag'alligi, so'zlari, ayniqsa, sinonimlarining miqdori bilan baholanadi. Chunki tovush(fonema)larning ko'pligi nutqni ohangdor, grammatik qo'shimchalar va sinonimlarning ko'pligi esa tilni mazmundor va nozik tabiatli qiladi. Ayniqsa, unli tovushlari qancha ko'p bo'lsa, til shunchalik tarovatli bo'ladi. Turkiy tillarning barchasida (o'zbek tilidan tashqari) unli tovush(fonema)lar soni 8 tadan ortiq(14-15 tagacha). Masalan, hozirgi turk tilida 8 ta, qirg'iz tilida 8 ta, ozar tilida 9 ta, turkman tilida 10 ta, qozoq tilida 12 ta unli tovush (fonema) borligi e'tirof etilgan va bu tillarning alifbolarida shuncha unli harf ham bor. O'zbek tili, ulardan farqli o'laroq, 6 unli tovush(fonema)li til sanaladi. Bu borada o'zbek tili barcha turkiy tillardan bir qarashda "kambag'al"roq. Aslida ham shundaymi? Nega tilimizning unli tovushlari, va shunga muvofiq, harflar soni ham boshqa tillarnikidan kam? Tilimiz chindan ham qashshoqmi?

Bu savollarga javob berish uchun tahlilni tarixdan boshlash kerak bo'ladi.

Tarix nima deydi?

O'zbek tili tarixidagi nutq tovushlarini tahlil qilish, aniqlash va zarur ilmiy xulosa berish – qiyin masala. Chunki bizda uzoq davr mobaynida arab alifbosidan foydalanilgan. Yozuvi undosh tovushlarga asoslangan (masalan, maktab so'zi *mkbtb* deb yoziladi) va bizning tilimizga mos bo'lmagan arab tili imlosi hukmronligi davridagi tovushlarimizning talaffuzi va miqdorini mukammal aniqlash imkonsiz. Tilshunos Hamid Ne'matov "O'zbek tilining tarixiy fonetikasi" asarida bu haqda bejiz "o'zbek tili tovush tizimining taraqqiyot yo'lini tarixda yozilgan asarlar tilining tovush xususiyatini qiyoslash asosida aniqlash mumkin bo'lsa-da, yozuv talaffuzni to'liq aks ettirmagan, shu sababli tarixiy fonetikani o'rganish juda qiyin" demagan edi. Shuning uchun o'zbek tiliga oid yozma yodgorliklarning fonetikasi kam o'rganilgan. Bu hol o'zbek tili tarixi bo'yicha darslik va qo'llanmalarda fonetika bo'yicha ma'lumot berishda katta qiyinchiliklar tug'diradi.

Ilk qarashlar

O'zbek tilining fonetik xususiyatlari, asosan, XX asrda o'rganila boshlangan. Tarixiy fonetika bo'yicha zamonaviy tadqiqotlarning yuzaga kelishida A.N.Kononov, K.K.Yudaxin, S.Malov, A.N.Samoylovich, A.M.Shcherbak, A.K.Borovkov kabi rus turkiyshunoslarining o'rni va roli katta bo'lgan. Keyinchalik o'zbek olimlaridan G'ani Abdurahmonov, Alibek Rustamov, Qozoqboy Mahmudov, Ergash Fozilov, Hamid Ne'matov, Qosimjon Sodiqov, Nasimxon Rahmonov tomonidan o'zbek tilining unli va undoshlar tizimi hamda ularning taraqqiyoti, unllarning o'zaro moslashuvi (uyg'unlashuvi) va urg'u kabi masalalar adabiy yodgorliklar misolida o'rganilgan. Ma'lumki, tildagi so'zlarning birinchi bo'g'inida unli talaffuzda "qalin" bo'lsa, keyingi bo'g'inlarida ham "qalin", "ingichka" bo'lsa, keyingi bo'g'inlarida ham "ingichka" bo'lishi unllarning uyg'unlashuvi, moslashuvi, ya'ni ilmiy termin bilan aytganda, singarmonizm deyiladi. Bu turkiy tillarda yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, *qara* so'zida birinchi bo'g'indagi unli "qalin", buning natijasida keyingi bo'g'indagi unli ham "qalin" talaffuz qilinadi. *Tara* so'zida esa buning aksini ko'ramiz: "ingichka" + "ingichka". O'zbek tilida qalin va ingichkalik asosida so'zlar ham farqlanadi: (olmani) bo'l – (olim) bo'l; (osmonga) uch – uch (raqam) so'zlarida talaffuzda farqlanadi-

gan va o'rin almasha, so'zlarning ham ma'nosini o'zgartiradigan ikki xil [o'] va ikki xil [u] tovushi bor. Shakli bir xil so'zlarda tovushlarning o'rin almashishi bilan so'zlarning ma'nosi o'zgarsa, bunday tovushlar **fonema** deyiladi.

O'zbek tilining turli taraqqiyot davrida yaratilgan yozma yodgorliklar – ilmiy va badiiy asarlar, rasmiy hujjatlar tarixiy-fonetik tadqiqot uchun asosiy manba vazifasini o'tagan, chunki yozma yodgorlikda u yaratilgan davr tili o'zining yaqqol aksini topgan. Uni atrofiga o'rganish asosida shu yodgorliklar yaratilgan davrdagi tilning tovush xususiyatlari va fonetik qonuniyatlarni ma'lum darajada aniqlash mumkin.

Qadimgi turkiy va eski o'zbek tilidagi unllar sonini belgilashda olimlar tomonidan turli fikr bildirilgan. Jumladan, K.K.Yudaxin, Lutfiy, Amiriy tuyuqlari tarkibidagi shakldosh so'zlarni tahlil qilib, chig'atoy adabiyotining bu namoyandalari davri tilida so'z tarkibidagi unllarning

fonetik xususiyatlarni uchratish mumkin). Qolaversa, unllar cho'ziqligi vazn talabi asosida bo'lgan, shuning uchun cheklangan so'zlarda qo'llangan cho'ziq [a:] ni alohida tovush(fonema) sifatida e'tirof etib bo'lmaydi. Mualliflarning o'zlari ham [u] fonemasining cho'ziqligi haqida gapirib, bunday cho'ziqlik vazn talabi bilan ekanligi, shuning uchun uning so'zlar ma'nosiga ta'sir qilish xususiyatiga ega bo'lmaganligini e'tirof etishadi: [u] ning tojikcha va arabcha so'zlarda, ayniqsa, she'rda cho'zib talaffuz qilinadigan varianti ham bor. Masalan, **zor**, **hur** kabi so'zlardagi unllar she'rda doim cho'zib talaffuz qilinadi, odatdagi nutqda esa qisqa aytiladi. Biroq bu unillardagi cho'ziqlik so'zni boshqa so'zga aylantirmaydi. Agar zor so'zidagi [o] tovushini qisqa aytisak, boshqa so'z, cho'ziq aytisak, boshqa so'z kelib chiqsa edi, bundagi cho'ziq [o:] va qisqa [o] tovushlari ma'no farqlaydi va ular alohida-alohida tovush(fonema)lardir deyish mumkin edi.

yodnomalar, ilmiy asarlar, lug'atlar orqali unllar bo'yicha aniq xulosa qilib bo'lmaydi, chunki badiiy, ilmiy asarlar tili umum-xalq tili emas. Ma'lum bir davr tilidagi unllarni o'rganish uchun xalq jonli tili bilan tanishish kerak, tarixiy fonetikada esa buning iloji yo'q, shuning uchun qilinayotgan xulosalar taxmin, hozirgi sheva materiallarini o'rganish hamda qardosh turkiy tillar fonetikasi bilan qiyoslashga asoslaniladi. Ikkinchidan, tilimizga yaqin bo'lmagan, arab tiliga xos bo'lgan aruz vaznidagi asarlar turkiy tillarning o'ziga xos xususiyatini aks ettira olmaydi. Bunda Fitratning qarashlari e'tiborli. Bu haqda tilshunos Yoqub Sayyidov shunday yozadi: "Ma'lumki, aruz vazni, asosan arab tili tabiatiga mos ravishda yaratilgan, undagi xususiyatlarni shu vazn orqali to'liq ifodalash imkoniyati mavjud. Turkiy, chunonchi, o'zbek tiliga kelganda, bu fikrni aytib bo'lmaydi. Chunki o'zbek tilining fonetik qurilishi arab tilinikidan tubdan farq qiladi. Shu bois aruz vaznida ijod etgan turkiyo'y shoirlar, Fitratning keltirishicha, "ikki turli ishga majburlar". Birinchisi, aruz, xususan, "mafo'iylun" vaznini faqat turkiyo'zbekcha so'zlar bilan to'ldirib bo'lmaydi. Vaznni tugal qilish uchun shoir arabiy va forsiy so'zlarni me'yordan ortiq qo'llashga majbur bo'ladi. Bu degani, adabiy til o'zbek tili hisobidan emas, balki yot tillar – arab va forsiy so'zlar bilan boyiydi. Bunday yo'ldan borish esa oxir-oqibat o'zbek tilini nazarda tutilgan tillar asoratiga solib qo'yadi.

Turkiyo'y shoirlarning ikkinchi "ishi" shundan iboratki, vazn talabi bilan ular "turkcha so'zlarning gavdasini buzishga" majbur bo'ladi. Ayon bo'ladi, arab tilida "madd" – biror tovushni aytishda cho'zish hodisasi mavjud, bu fonetik hodisa bu tilda keng tarqalgan. Arab tilida so'zlardagi muayyan tovushni "bir uzun cho'zg'idan, to'rt uzun cho'zg'igacha tortmoq mumkindir". Bu hodisa turkiy (o'zbek) tilida fonetik jarayon sifatida keng tus olmagun. Shu bois aruz vaznida ijod etgan shoir turkiyo'zbekcha so'zlarni qo'llar ekan, ularning "gavdasi"ni buzishga istaydimi-istamaydimi, albatta, majbur bo'ladi va bu, Fitrat aytganidek, kulgili holatni keltirib chiqaradi. "Aruzning eng ohangli, eng o'ynoqi bir vaznida yozilgan turkcha bir she'rni qishloqda yashagan, o'z tilining ohangini buzmag'an bir turkka o'qutsangiz-u tinglag'ani she'rda turkcha so'zlarning cho'zulub, tuzatib bema'za etilib aytilg'anini eshitgach, albatta, kuladir-da, tinglag'ani she'ming bir turk og'zidan chiqmag'aniga hukm qiladir" deb yozadi Fitrat.

Olimlarning fikr-mulohazalarini umumlashtirib quyidagi to'xtamga kelish mumkin:

- qadimgi turkiy, eski turkiy va eski o'zbek tillarida unllar uyg'unlashuvi (singarmonizm) qonuniyati amalda bo'lgan;
- unllar uyg'unlashuvi (singarmonizm) asosida unllar "qattiq" ("qalin") lik va "yumshoq" ("ingichka") lik jihatidan farqlangan;
- unllar miqdori boshqa turkiy tillardagi kabi 8-9 ta bo'lgan;
- unillardagi unllar uyg'unlashuvi (singarmonizm) ma'no farqlash vazifasini bajargan;
- unillardagi cho'ziqlik ma'no farqlash vazifasini bajarmagan.

Til taraqqiyotida uning fonetikasi – eng kam o'zgaradigan sohasi. Juz'iy o'zgarishlar ham ming yillarni talab qiladi. Bu tilimizning hozirgi holati haqida xulosa chiqarishga asos bo'ladi.

Baxtiyor MENGLIYEV,

filologiya fanlari doktori, professor

Inomjon AZIMOV,

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

O'zbek tili unli tovushlari haqida (1-maqola)

uyg'unlashuv, moslashuv (singarmonizm) qonuniyati buzilgan, natijada ular soni kamayib 6 ta unli qolgan degan xulosaga keladi. A.M.Shcherbak esa bu fikrga qarshi borib, tuyuq janridagi shakldosh so'zlar talaffuzi asosida unilarga baho berib bo'lmaganligini, zotan, Navoiy tuyuqlarida ara(ora) so'zi, ara(aro) so'zi bilan qofiyadosh bo'lib kelishi she'riy vazn talabi bilan ekanligini, o'zbek tilida ham boshqa turkiy tillardagi kabi bu davrda tovushlar uyg'unligiga amal qilinganini va shu sababdan tilimizda 8 ta unli tovush (fonema) mavjud bo'lganini ta'kidlagan.

Til sohiblari nima deydi?

O'zbek tilshunoslari G'ani Abdurahmonov va Alibek Rustamov "Qadimgi turkiy til" darsliklarida 8 ta unli haqida gap boradi. N.Rahmonov ham qadimgi turkiy tilda ham unllar uyg'unligi amal qilgani va tilimizning bu davrida unllar soni 8 ta bo'lganini uqtiradi. Ular: [a], [ä], [i], [j], [o], [ö], [u], [ü]. Hamid Ne'matov ham eski o'zbek tilining kelib chiqish manbavi bo'lgan va qoraxoniylar davlatida rasmiy adabiy til vazifasini o'tagan eski turkiy tilda 8 ta unli tovush(fonema) bo'lganligini qayd etgan.

G'ani Abdurahmonov va Alibek Rustamov Navoiy davri unllari haqida so'z yuritishar ekan, bu davrda 9 ta unli mavjud bo'lganini aytadi: [i] (qir), [i:] (bir), [e] (elak), [a] (aka), [ɔ] (olim), [o] (qo'l), [o:] (to'sha), [u] (qush), [y] (tush). Qadimgi turkiy tildagi [i]-[y] fonemalari bu davrda birlashib bitta [i] unlisi vujudga kelgan, cho'ziq [a:] fonemasi iste'molda bo'lgan deyiladi. Bizningcha, bu fikrga qo'shilib bo'lmaydi, chunki XV asrlarda ham unllar uyg'unlashuvi(singarmonizm)ga to'la amal qilinganini aksariyat mutaxassislar e'tirof etishadi. Shunday bo'lgach [i]-[y] yumshoq-qattiq unllar Navoiy tilida ham qo'llangan. To'g'ri, cho'ziq-qisqa unllar – arab, forsiy tillarida ma'no farqlovchi alohida tovushlar. Tilimizga bu tillardan juda ko'p so'z bilan ulardagi ma'noni farqlash vositalari ham kirib kelgan, lekin bu milliy o'zbek tiliga xos bo'lmagan xususiyat o'laroq arab va forsiy tillari bilimdonlari nutqida uchragan (zotan, hozir ham bunday kishilar nutqida hozirgi o'zbek tiliga xos bo'lmagan

O'zbek tilida unllarning cho'ziq-qisqaligi haqida tilshunos Hamid Ne'matov shunday fikr bildiradi: "unllarning cho'ziq-qisqaligi masalasida ikki olim – Mahmud Koshg'ariy va Alisher Navoiy qarashlariga murojaat qilamiz. Mahmud Koshg'ariy turkiy so'zlarning unli tovushlarini tavsiflab shunday yozadi: "unllarni cho'ziq yoki qisqartirib talaffuz qilish so'zga zarar bermaydi". "Devon"ning boshqa joyida yana ham aniqroq qilib yozadi: yig'ach deyish ham mumkin, yig'ach deyish ham mumkin, tanuq deyish ham, tanuq deyish ham mumkin. Lekin ismlarda ham, fe'llarda ham qisqartirish yaxshi va to'g'ridir". Mahmud Koshg'ariyning bu so'zlaridan faqat bitta xulosa chiqarish mumkin. XI asr adabiy tilida cho'ziq unllar bo'lmagan, lekin ayrim so'zlarni cho'ziq unli bilan talaffuz etish o'sha davr shevalarida mavjud bo'lgan; unllarning cho'ziq-qisqaligi asosida boshqa-boshqa so'z namoyon bo'lmagan. Eski turkiy tilda cho'ziq [a] va qisqa [a:] boshqa-boshqa so'zlarni keltirib chiqargan. Demak, bir tovush cho'ziq ham, qisqa ham talaffuz qilinavergan va bunga qarab ularni 2 ta tovush(fonema) deyish to'g'ri emas. Bu haqda Alisher Navoiy ham fikr bildiradi. Eski o'zbek tilining tovush imkoniyatlari, she'r tuzish va qofiyalardagi qulayliklari haqida to'xtalib, bu tildagi unllarning qisqa ham, cho'ziq ham talaffuz etilishi she'riyat uchun qulay ekanini ta'kidlaydi. Buyuk mutafakkir, jumladan, turkiy so'zni *ara* sifatida qisqa talaffuz etib qisqa unli forscha *sara*, *dara* so'zlari bilan ham, *ara*: sifatida cho'ziq talaffuz etib cho'ziq unli forscha *sara*:, *dara*: so'zlari bilan ham qofiyalash mumkinligini uqtiradi. Alisher Navoiy bergan ma'lumotlardan ham turkiy so'zlarda cho'ziq-qisqaligiga qarab unllar sonini belgilab bo'lmastligi, unlining cho'ziq-qisqaligi vazn va qofiya talabi bilan hosil bo'lishiga ishonch hosil qilish mumkin. Demak, eski turkiy hamda eski o'zbek tilida unllar cho'ziq va qisqalik bilan ma'no jihatidan farqlanmagan. Bu cho'ziq-qisqalik asosida unllar sonini ko'paytirish mumkin emasligini ko'rsatadi.

Xulosa


Yuqoridagi fikrlar xilma-xilligidan shunday xulosa qilish mumkinki, adabiy

FARMON, VAZIFALAR VA IJRO

Fanning falsafiy-estetik asoslarini o'zlashtirish

Afsuski, ta'lim jarayonida falsafaning o'qi-tilishi, ayniqsa uning amaliyotga – hayot, ishlab chiqarish va fanga tatbiq etilishi bilan bog'liq kurslar, mashg'ulotlar o'z maqsadiga erishmoqda, deb bo'lmaydi. Ochig'ini aytganda, bugungi kunda talabalar falsafiy nazariya, tushuncha, qonun va kategoriyalarni jonli mushohada qilish va abstrakt tafakkur chig'irig'idan o'tkazib, amaliyotga tatbiq eta olish ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida emas, balki pala-par-tish yodlash, belgilangan sinovlardan “bir amallab o'tib olish”dan nariga bormayaptilar. Bunday salbiy munosabatning tug'ilishiga – avvalo, sovet davrida falsafani zo'rlab o'qitish, uni majburiy mafkuraviy-ideologik fanga aylantirish va, eng muhimi, og'izda ko'pirtiriladigan dialektik metod bilan amaliy faoliyatdagi metafizik usul orasidagi tubsiz jarlik, so'z va amal ziddiyati, qolaversa, bu fan ta'limi bilan qator muayyan fanlarda yuksak cho'qqilarga ko'tarilgan yetuk olimlar emas, balki saviyasi o'rtadan past bo'lgan (aslida, biror muayyan fandan natijaga erisha olmasligiga ko'zi yetib, o'zini “oson” va “yengil” soha bo'lgan falsafa-ga urgan) mafkurachi-ideologlar shug'ullan-ganligi kabilar sabab bo'ldi. Shuning uchun falsafiy masalalarni har bir fan, soha va ixti-soslik doirasida o'qitmoq, eng muhimi, shu fan hodisalarini dialektik tamoyil, qonun va kate-goriyalarda umumlashtirish, xususiyliklar asosida umumiylikni, shakl asosida mazmunni, oqibat asosida sababni, tajallilar asosida zotni topa olish (ko'ra olish, ocha olish) kompetensiya-sini shakllantirish maqsadga muvofiq. Falsafiy tadqiqotlarda ham xususiy falsafa (dialektika) shakllanishi, bunda umumdialektik qonun va kategoriyalar muayyan fanlarda aks etishining o'ziga xosliklari tekshirilishi lozim. Bu bilan esa ochilgan umumiy qonuniyatlar amaliyotda tekshiriladi, to'ldirib mukammallashtiriladi.

Esa tutmoq kerakki, tilshunoslik yoki adabiyotshunoslik fanining biror masalasi yo'qki, u ma'lum bir qirasi bilan falsafiy va es-tetik hodisalarga tutashmagan bo'lsin. Masalan, oddiygina sof lingvistik hodisadek ko'rinadigan tovush va harf munosabati masalasi falsafiy shakl va mazmun kategoriyalari antinomiya-si, ijtimoiy (shartli) ramzda shakl va mazmun simmetriyasi/asimmetriyasi, ixtiyoriyligi/maj-



biyrligi, o'zgaruvchanligi/barqarorligi kabilar bilan tutashib ketadi. Shu bois biror o'quv fani tilshunoslikning falsafiy masalalari muammosi-ni chuqur va atroflicha tahlil etish imkoniga ega emas.

Til falsafasi umumiy nomi bilan e'lon qilin-gan va turli tillarda yozilgan tadqiqotlar soni juda ko'p, lekin bularning birortasi ham o'quv qo'llanmasi yoki darslik emas, balki tilshunos-likning falsafa bilan aloqador bo'lgan ayrim muammolari muhokamasiga bag'ishlangan izlanishlar mahsulidir. Hatto Otto yespersen-ning o'zi o'quv qo'llanmasi deb mo'ljallagan va “Grammatika falsafasi” deb nomlagan asari ham shular sirasiga kiradi. Muammoga doir alohida tadqiqotlar – xilma-xil masalalarni turli-tuman nuqtayi nazardan turib tahlil etgan boy ilmiy adabiyotlar xazinasi mavjud. Ammo bundan foydalanish o'quvchidan ma'lum bir tayyorgarlikni, qolaversa, ehtiyoqkorlikni talab qiladi. Zero, hazrat Alisher Navoiy “Muhoka-matul-lug'atayn”da ta'kidlaganidek, odatda, har bir “maxzanning yiloni xunxor va gulshanning tikoni behadd-u shumor”dir.

Metodologik (falsafiy) adabiyotlarni o'rga-nish jarayonida bir masalaga alohida e'tibor qaratish lozim. 1920–90-yillarda sobiq SSSR-da nashr etilgan ilmiy-falsafiy adabiyotlarning barchasi ateistik-materialistik nuqtayi nazardan yozilgan. Masalan, “Tilshunoslikka kirish” kur-

(2-maqola)

sidagi tilning paydo bo'lishi masalasi ta'limi ham hanuz sobiq mafkura zanjirlaridan qutula olmayapti. Holbuki, dunyo miqyosida tillarning paydo bo'lishi masalasi yangi-yangi nazariyalar bilan boyimoqda. Albatta, bunday ishlarga ham, IX–XIX asrlarda yozilgan diniy-ilmiy adabi-yotlarga ham, idealistik mohiyatga ega XVI–II–XX asr yevropa falsafiy adabiyoti (F.Bekon, I.Kant, F.Hegel va boshqa faylasuflar, F.Bopp, A.Shleyxer, V.fon Humboldt kabi tilshunoslar) asarlariga ham tanqidiy yondashgan ma'qul. Xuddi shunday fikrni diniy-islomiy va fal-safiy-badiiy (masalan, “Mantiq ut-tayr” , “Li-son ut-tayr” kabi), sof ilmiy (masalan, “Devoni lug'otit turk”, “Muhokamat ul-lug'atayn” kabi) asarlar haqida ham aytib o'tmoq zarur: har bir muallif ma'lum bir nuqtayi nazar(metodolo-giya)ga tayanadi. Hozirgi zamon tadqiqotchisi turli xildagi talqinlarni bilishi zarur, lekin uning o'zi qanday nuqtayi nazarga tayanadi – bu uning ilmiy fikr erkinligidir. Bo'lajak tadqiqotchilarda ilmiy fikrlarni tanlash madaniyatini shakllanti-rish hozirgi davr ta'limining asosiy vazifalari-dan. Mashhur o'zbek olimi, adabiyotshunosa va shoir Shoislom Shomuhamedov Umar Hayyom ruboiylari nashri oxirida bergan o'z ruboiysida shunday yozganidek:

*Xayyomdan o'qigil jahon bahsini,
Undan topajaksan zamon naqshini.
Aqling elagidan o'tkazib bir-bir,
O'zing ajratib ol yomon-yaxshini.*

Turli davrlarda, har xil mafkura hukmronligi sharoitida yozilgan ilmiy tadqiqotlarni o'qish o'quvchidan zakovatni, asar yozilgan davr maf-kurasiga nisbatan tanqidiy nigoh bilan qarashni, yondasha olishni talab qiladi.

Ta'lim mazmunidagi mafkuraviy asoratlar

Ta'lim mazmunidagi islohtalab masalalarni filologiya va tillarni o'qitish hamda o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishlari uchun “Tilshunos-likka kirish” qo'llanma/darsliklarida tillarning paydo bo'lishi muammosi doirasida dalilay-miz. Buning ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy sa-bablarini qidirishning hojati yo'q. Biroq ularda mavjud nuqson va kamchiliklarni bugungi kun nuqtayi nazaridan ilg'ash muhimligicha qolmo-

qda va bu borada siljishlar kuzatilmayapti.

Birinchidan, sobiq tuzum o'quv adabiyot-larida davrning o'ta jiddiy nuqsoni – marksistik ta'limotni ilohiylashtirish, mutlaqlashtirishga yo'l qo'yilgani edi. Masalan, dunyoda eng av-val paydo bo'lgan tilning fonetik tuzilishi, so'z boyligi qanday ekanligini, grammatik shakllari nimalardan iborat ekanligini bilish mumkin emasligidan qat'i nazar, marksizm-leninizm ta'limoti umuman tilning qanday sharoitlar-da paydo bo'lish masalalarini to'g'ri hal qila olishi, boshqacha qilib aytganda, marksizm-le-ninizm ta'limoti bu masalalar yuzasidan umu-miy to'g'ri tushuncha bera oladi degan g'oyalar ustuvor edi va hozirgi darsliklarda unga ilmiy baho berilmayotir.

Bugungi darsliklarda tilning kelib chiqishi-dagi ilohiy qarashlar rus tilidagi adabiyotlarda-gidek inkor qilinadi. Turli nutq tovushlarining birikib, so'zlar hosil qilishi va so'zlar vositasida gap tuzib, istak va maqsadni ifodalashi, ayniqsa, kishilik jamiyatining boshlang'ich davrlarida odamlarni hayratda qoldirgan. Shuning uchun tilning paydo bo'lishi haqida qadimgi kishilar turli rivoyatlar to'qigan. Bu rivoyatlarning ba'zilarida tilni Xudo yaratib, kishilarga taqdim qilganligi, ayrimlarida esa tilni ajoyib bir do-nishmand yaratganligi talqin qilinadi mazmu-nidagi fikrlar ilgari surilgan.

Darsliklarda diniy va mifologik qarashlar umuman yoritilmaydi. Mualliflar tilning paydo bo'lishi borasidagi milliy, diniy va ma'naviy, qolaversa, umumbashariy merosimizni e'tibor-ga olishmaydi. Vaholanki, Qur'oni karim oyat-lari, musulmon filologlarining ma'lumotlari ta-labalarga taqdim etilayotgan o'quv adabiyotlari mazmunini yanada boyitgan, mukammallashtir-gan, milliy tus bergan, muammoni esa ancha oydinlashtirgan bo'lar edi.

Sho'ro darsliklarida marksizm-gacha bo'lgan ta'limotlar noto'g'ri, noobyektiv hodisalar sifa-tida baholanar edi. Masalan, odamsimon may-munlarning taraqqiy qilmagani hiqildog'i esa turli tovushlarga taqlid qila olmasligi, demak tovushga taqlid nazariyasi tilning paydo bo'lishi masalasini hal qilolmasligi, bu nazariya til bi-lan tafakkur birligiga zid nazariya ekanligi yoki taqlidiy ovoz va undov nazariyalari, asosan, psixofiziologik nuqtayi nazardan so'zlashish mexanizmining kelib chiqishini o'rganishni bi-rinchi darajali masala sifatida ko'ndalang qilib qo'yganligi, sotsial omillarni hisobga olmaslik tilning kelib chiqish masalasiga skeptik muno-sabatda bo'lishga olib kelishi, bunda biologik tomonga haddan ortiq ahamiyat berib, odam

va kishilik jamiyatining paydo bo'lishi hisobga olinmasligi kabi fikrlar talabalar dunyoqarashi-da kemtik hosil qiladi. Zero, marksizm inkor qilgan qarashlar “marksizm” so'zsis saqlanib qolmoqda.

Milliy “Tilshunoslikka kirish” darsliklarida-gi yana bir asosiy kamchilik – ularda ijodiylik, mustaqillik, erkin tafakkurning yetishmasli-gi. Darsliklar, asosan, kommunistik mafkura metodologiyasiga asoslangan mualliflar qo'l-lanmalari va adabiyotlari andozasi, nusxasi, erkin tarjimasiga yaratilgan. Muammo-ni yechimi o'quvchining tafakkur erkinligiga havola etilmasdan, marksistik (ateistik) nuqtayi nazar mutlaqlashtirilib, bundan avvalgi qarash-lar, nazariyalar butkul qoralangan yoxud marks-cha dunyoqarashga tamoman zid g'oyalar sifa-tida baholangan. Davrning fojeali aksi sifatida marksistik mafkura va uning asoschilari qarash-larini nomsiz bo'lsa-da, haddan tashqari ilohiy-lashtirish bo'ttib turadi.

To'g'ri, tilning paydo bo'lishi haqidagi “mehnat nazariya”sini inkor qilib, uning o'rni-ga diniy yoxud undovlar singari qarashlarni isbotlashga qodir emasmiz, lekin bu borada-gi barcha ta'limotlar, umumbashariy g'oyalar, mushohadalar bilan, ayniqsa, milliy tariximiz, ma'naviy qarashlarimiz bilan tanishishga, o'rganishga, haqqoniy va tanqidiy ko'z bilan qarab, zarur dunyoqarashga ega bo'lishga to'la haqlimiz.

Aslida, sho'ro darsliklaridagi mavjud jiddiy hamda juz'iy xato-kamchiliklarning asl sababi – ularga sho'roviy, marksistik va ateistik maf-kuraning zo'r berib singdirilganligi edi. Biroq milliy istiqlolga erishib, dinimiz, tilimiz va ma'naviyatimiz yana o'zimizga qaytgan ushbu muborak zamonlarda, hurfikrlilik, demokratik tamoyillar targ'ib etilayotgan shunday davrda lingvistik va falsafaning eng muhim masala-si bo'lgan tilning paydo bo'lishi muammosini milliy va dunyoviy qarashlar asosida, chuqur ilmiy va falsafiy metodologiyaga tayanib yorit-ish, o'rganish va o'rgatish maqsadga muvofiq. Bu esa oliy o'quv yurtlarida “Tilshunoslikka kirish”, “Til tarixi” kurslarida tilning kelib chi-qishi muammosini o'qitish mas'uliyatini yana-da oshiradi. Zero, bu maqsad milliy mafkura-mizning milliy tarix va ma'naviyatni o'rganish, erkin, farovon, demokratik, qudratli jamiyat barpo etish, barkamol shaxsni tarbiyalash kabi ezgu niyatlariga hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturining erkin fikrli, ijodkor, chuqur diniy va dunyoviy ilmlar bilan mustahkam qurollangan yetuk shaxsni tarbiyalash singari talablariga to'la muvofiq va hamohang.

Turdosh ta'lim yo'nalishlari maqsad va va-zifalaridan kelib chiqqan holda o'quv dasturla-ridagi fanlar tizimi, ularning mazmunini ko'rib chiqish va tubdan isloh qilish borasida asosiy katta muammolar yechilmasdan qolayotir. Juda ko'p masalalarda jahon tajribasi taraqqiyot ten-densiyalariga uyg'unlashish, dunyoning ilg'or ta'limini ichdan o'rganish va zarur holatlarni o'zlashtirish asosida umrini o'tab bo'lgan, maf-kuraviy kishanlardan qutulish, umuman olgan-da, milliy-filologik ta'limni davlat buyurtmasi va ijtimoiy ehtiyoj talablaridan kelib chiqqan holda ilg'or oliy ta'lim andozalariga mos rivoj-lantirish professional majburiyat va vijdon masalasi darajasiga ko'tarilmog'i lozim.

Baxtiyor MENGLIYEV,
filologiya fanlari doktori, professor
G'ofir HAMROYEV,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Bugungi kunda har bir davlat dunyo hamjamiyatida yetakchi o'rinlarni egallashni, o'z tilining nufuzi o'rinishi xohlaydi. Ammo buning uchun istakning o'zi kamlik qiladi. Bir tilning ommalashuvi, sarhad bilmay keng yoyilishi uchun, avvalo, o'sha davlat-ning o'z tiliga bo'lgan hurmati, e'tibori baland bo'lishi kerak. Masalan, dunyoning qa-tor gigant davlatlari, jumladan, koreyslar o'z ona tilidan tashqari nechta tilni bilishi-dan qat'i nazar, mamlakat hududida boshqa tilda so'zlashishmaydi. Davlatdagi xorijiy tillarni o'rgatuvchi universitetlarda tahsil oluvchi talabalar kelgusida koreys tilining yoyilishi uchun xizmat qiladi(bizda esa teskari).

TILNI TARG'IB QILISHDA KOREYA TAJRIBASI

Bu qanday amalga oshiriladi? Hayotiy bir misol: “Madaniyat va ma'rifat” telekanalida efi-riga uzatilayotgan “Bor gap” tok-shousining yur-timizdagi oliy ta'lim muassasalarining yutuq va kamchiliklariga bag'ishlangan soniga kasbiy ama-liyot yuzasidan bordim. Tok-shouda poytaxtimiz-da joylashgan Aju universiteti o'quv bo'limi xodi-mi, koreyalik Chan Inha xonim ham qatnashdi. U Koreya chet tillari universitetining O'rta Osiyo fakultetini o'zbek tili yo'nalishi bo'yicha tamom-lagan, hozirgi vaqtda esa Aju universiteti talabala-riga koreys tilidan dars berar ekan. Ba'zi tovushlar: “q” va “k”ning o'zgarish talaffuzi hamda gaplari ohangining biroz cho'ziqligini hisobga olmaganda, u o'zbek tilida ravon gapirdi. Bizning ta'lim tizimimiz va Koreya ta'lim tizimi o'r-tasidagi tafo-vutlarni nutqi davomida dadil ochib bera oldi. Yur-timiz ta'lim tizimi haqidagi aniq keltirgan faktlari hamda o'zi haqida aytgan ma'lumotlariga ko'ra juda ko'p o'qib, izlangan va ancha yillardan beri milliy tilining taraqqiyoti va takomillashuvi uchun harakat qilib, hissa qo'shib kelmog'da. Qayerda bo'lsin, eng muhimi, o'z tilining ravnaqiga, porloq kelajagi – uning davlatlararo yoyilishiga hissa qo'shayotganligini ko'rib ta'sirlandim. Ha-qiqatan ham, o'nak olishimiz, o'zlashtirishimiz kerak bo'lgan jihatlar ko'p ekanligini his qildim. Ayniqsa, tilni targ'ib qilishda. Axir, o'zbek tili-ni ham hech qaysi tildan kam bo'lmagan, kerak bo'lsa ba'zi tillarda uchratib bo'lmaydigan boy zaxirasi bor! (Masalan, hazrat Navoiy turkiy tilda-gi yuzta fe'lni keltirib, ularning ma'nosini angla-tadigan so'zlarning fors tilida mavjud emasligi haqida yozgan).

Janubiy Koreya davlat tiliga yuksak darajada e'tibor qaratmog'da. Ma'lumotlarga ko'ra, turli dav-latlarda 22 ta yangi “Qirol Sejong” (Koreys alifbo-si asoschisi) institutlarini ochish va ularning jami sonini 235 taga yetkazish maqsad qilingan. Bu uni-versitetlarga esa Koreyada chet tillarini o'zlashtir-gan mutaxassislar yuboriladi (Shuningdek, qaysi davlatda bo'lsin magistratura yo'nalishini ta-momlagan va koreys tili bo'yicha daraja serti-fikatiga ega xodimlar dars berishi mumkin). Shu o'rinda Koreyada chet tillarni pul topish uchun emas (bizdagidek), o'z ona tilini yoyish maqsadida o'rganishda deb baholash va o'zimiz uchun kerak-li xulosa chiqarishimiz mumkin.

Janubiy Koreya o'z tili va alifbosining butun dunyoda mashhurligini oshirish uchun 2021-yil re-jasi bo'yicha rekord miqdorda mablag' ajratishga qaror qilgan. Haqiqatan ham, mamlakat o'zining K-pop qo'shiqchilik san'ati yulduzlari BTS va Black Pink kabi guruhlar bilan bir qatorda koreys tilining ham obro'sini butun jahonga namoyish etmog'da. Bugungi kunda bu guruhlarni tanimay-digan, bilmaydigan biror davlatni topish qiyin. Bundan tashqari ular o'z tillarini targ'ib qilish uchun 2021-yili Koreya madaniyat, san'at, sport va turizm vazirligi budgetidan 89 milliard von (Koreya milliy pul birligi)dan ortiq mablag' ajra-tishgan. Dastlabki bir yil mobaynida 24 milliard


von sarflashgan. Shuningdek, koreys tili o'rga-nishga mo'ljallangan qo'llanma va darsliklarni 25 tilga tarjima qilishga ham katta e'tibor qaratilgan. Hozir ushbu darsliklar Xitoy, ingliz va vyetnam tillariga tarjima qilingan. Aynan shu tarjimalar orasidan koreys-ingliz nashridagi “서울대 한국어” kitobini ko'rib chiqdim. Kitobda asosan diazayn, rasmlar va ularning ranglariga urg'u berilgan. Undagi sxema, tasnif va grafiklar bo'ylab o'ziga xos joylashtirilgan ma'lumotlar o'rganuvchining diqqatini, qiziqishini oshirishga, ushbu tilni tezroq o'rganishga yordam beradi. Kitobni ko'z orqali xotiraga sifatli muhrlash uchun tayyorlangan ajo-yib namuna desa bo'ladi.

Bundan tashqari ajratilgan mablag'lardan dunyo bo'ylab onlayn til o'rgatish materiallari, Koreya kino va seriallari hamda boshqa turda-gi madaniy resurslarni ham subtitrl orqali tarjima qilib, tarqatish uchun foydalanishmog'da. Mazkur mablag'lar nafaqat Koreyaning xorijdagi nufuzini oshiradi, balki koreys tilining dunyo tan olgan 7-til maqomini olishiga qadam bo'layotgan bo'lsa, ajab emas. Internet ma'lumotlariga ko'ra, koreys xalqining bu sa'y-harakatlari natijasida hozirgi vaqtda yer yuzida bu tilda so'zlashuvchilar soni 70 milliondan ortgan. Jumladan, Yaponiya, Xitoy Xalq Respublikasi, AQSH, Rossiya, MDH dav-latlari hududida ham koreys tiliga qiziquvchilar, o'rganuvchilar va bu tilda gaplashadigan kishilar soni ko'payib bormog'da, deyiladi idium.uz inter-net portali ma'lumotlarida. Birgina yurtimiz mi-solida oladigan bo'lsak, O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi axborot xizmatining ma'lum qilishicha, mamlakatda hozirda koreys tili o'qitiladigan 12 ta maktab faoliyat yuritmog'da. Shuningdek, koreys tili o'qitiladigan sinflar soni 2017-2018-o'quv yi-lida 91 tani tashkil etgan bo'lsa, 2018-2019-o'quv yilida 153 taga yetdi. Bunda, albatta, ikki dav-latning uzoq yillar mobaynidagi diplomatik alo-qalarining ta'siri katta (Janubiy Koreya O'zbe-kiston mustaqilligini birinchilardan bo'lib tan olgan, 1992-yil 29-yanvarda diplomatik aloqalar o'rnatilgan).

Qo'shimcha ma'lumot o'mida aytish joizki, poytaxtimiz Toshkentda 1992-yildan boshlab Ko-reya ta'lim markazi faoliyat ko'rsatib kelmog'da. O'zbekistonning 7 ta oliy ta'lim muassasasi hamda 48 ta maktab va litseylarda, Sejong maktabida ko-reys tili o'rgatilmog'da. Shu bilan birga yurtimiz-da Koreyaning Inha, Puchon, Yaju, Aju hamda Farg'onada Koreya xalqaro universiteti filiallari mavjud. Keyingi vaqtlarda koreys tili o'rganish-ga oid kitoblar ham ko'paymog'da.

3-unday natijaga o'zbek tili ham erishishga haqli! Prezidentimiz murojaatnomasida aytgan-laridek, chet tilni bilish – zamon talabi, ammo o'z tilimizni puxta o'rganishimiz shart! Nafaqat puxta o'rganish, balki jahonning mana shunday rivoj-langan davlatlari tajribasidan foydalanib, biz ham o'z tilimiz nufuzining o'rinishiga hissa qo'shishimiz kerak!

Shahnoza YANGIBOYEVA,
“Marifat” muxbiri





O'ZIMIZNING AJNABIY

Yoxud o'z yerimizda o'zganing tilini bilmasligimiz aybdek go'yo

Taxminan ikki-uch yillar avval qoramollar boqilayotgan fermada bir buqani ukol qilishga to'g'ri kelib qolgandi. O'shanda ukol qilayotgan kishi (mutaxassis emasdi) qayta-qayta urinsa ham ignani terisiga sanchishga jur'at qilolmay, oxiri amallab ishini bitirgan, ukol qilingan joy esa shishib qolgandi. Hozir bu voqeani eslab shunday deyishim mumkinki, shifokorlar katta jasorat sohiblaridir.

Yo'l transport hodisasi tufayli bosh qismida jarrohlik amaliyoti o'tkazilib sog'aygan qarindoshimning "doktorlar bo'lmasa, boshimizni bog'lab qo'yib qurtlab yuraverardik" degan gapiga rosa kulishgandik. Sharafti kasb egalaring mehni tahsinga sazovor. Barcha ilmiy sog'likni saqlash xodimlariga chuqur hurmatimni bildirgan holda tibbiy muolaja olishga borganlar ko'pincha duch keladigan, e'tiroz bildirishga sabab bo'ladigan ba'zi holatlarni aytib o'tsam.

Bir necha oy oldin xalq orasida "16-gorbolnitsa" nomi bilan mashhur shifoxonada davolanayotgan qarindoshimning oldiga borgandim. Beixtiyor bemor oldidagi qog'ozlarni o'qib ko'rdim. U butkul rus tilida ekan. Menimcha, kasalning holati qayd etilgandi.

Yaqinda esa ijtimoiy tarmoqlarning birida shu mazmundagi joylanmaga ko'zim tushdi. Zayniddin Sherzodiy feysbuk sahifasida Respublika ixtisoslashtirilgan akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markaziga borayotganligi, hujjatlarning ruscha ekanligi, shifoxona analizlarini tushunish uchun esa rus tilini o'rganishga majbur emasligi haqida yozadi. Qabulxonadagilarga Prezidentning "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmonini eslatganini va ularning endi o'zbekchaga o'tishayotganligi mazmunidagi javobini ham keltirib o'tadi. "O'zbek tilini o'rganish ikki yildan buyon endi qabulxonaga yetib kelibdimish", deydi Zayniddin Sherzodiy.

Farmon ijrosining ta'minlanishi til taraqqiyotida ahamiyatli. Undagi ko'zlangan maqsadlar 21-oktabr ruhi yil bo'yi sezilishiga vosita bo'lsa, ajab emas. Ijrosi 2020–2030-yillarga mo'ljallangan.

Bu ko'tarilgan mavzuni yoritish maqsadida omma ichida "16-gorbolnitsa" deya nomlanuvchi muassasaga yo'l oldim. Har ehtimolga qarshi o'sha yerdagi bemorning qo'lidagi qog'ozlarni ruxsati bilan ko'rdim: rus tilida ekan. Keyin shu mavzuga munosabat so'rash uchun biror mas'ul izlay boshladim. Gaplarimni tinglagan yosh shifokor meni yuqoriroq lavozimli bir xodimga uchrashtirib qo'ydi. Suhbatimizdan uning kimligini yozmaganim ma'qulligini angladim. Maqsadimni tushuntirgach farmonni ham eslatib o'tdim. U inson bundan xabardor ekanligini aytdi. So'ngra men nega hali ham bu tizimda ko'zga ko'rinadigan o'zgarishlar yo'qligi haqida so'rab, balki ilmiy adabiyotlar o'zbek tilida kamdir, de-

dim. Ana shundan keyin suhbatdoshim izlayotgan narsasini topgandek bo'lib javob bera boshladi. Shifoxonadagi xodimlarning ko'pi ToshMIn bitirganligi, u yerdagi ko'plab adabiyotlarning rus tilida ekanligini hamda birinchi kursga kelgan rus tilini bilmaydigan talaba ham 6-kursni tamomlaganda u tilda bemalol gaplashadigan bo'lib chiqishi haqida gapirdi. Bu esa ishda ham o'z ta'sirini o'tkazishini aytdi. Shu bilan cheklanib akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markaziga yo'l oldim. Afsuski, ish vaqti tugagan ekan. Boshqa kuni yana bordim. U yerdagilar bu ish bilan falon xodim shug'ullanadi, deb aytishdi. Uchrashdim: ishlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilayotganini ma'lum qilib devonxona hamda xodimlar bo'limini misol keltirdi. Yaxshi gumon qilamizki, Zayniddin Sherzodiyning achchig'ini chiqargan chek, navbat, tashxis kabilar ham tez orada ona tilimizda ko'rinish bergay.

Undan keyin esa ilmiy adabiyotlarning ko'pi rus tilida degan fikrning qay darajada o'rinni ekanligiga javob topish bahonasida Tibbiyot akademiyasi tomon yo'l oldim. Beruniy metroda uzunroq soqolli kishi (qo'rqmang, "kinochilarimiz" ta'rif-u tavsif etganlaridek terrorchi emas) mendan TTA yo'lini so'rab qoldi. Sherik bo'lib birga ketdik. Yo'l-yo'lakay o'zi qo'qonlik ekanligini, Rossiyada ishlab yurganida umurtqasi singanligi va u yerning doktorlari suyaklarini bir vosita bilan biriktirib qo'yganini, endi esa o'sha narsani Qo'qonda yechish imkoni bo'lmaganidan Toshkentga kelganini aytdi. Uning ishi hal bo'ldimi yoki yo'q – bilmayman.

O'zimga kerakli binoni izlab yurib bir yigitdan yordam so'radim. Kelayotgan tomonimiz bir ekanligi sababli hamroh bo'ldik va unga maqsadimni aytdim. U esa shu yerda o'qiganligini, asosiy manbalarining haqiqatan ham rus tilida ekanligini va yaxshi mavzuni ko'targanligimni aytib kutubxonaga borishimni maslahat berdi. TTA kutubxonasiga borib elektron resurslar bilan ishlash bo'limi mudiri Mohidil opa Nazarova bilan suhbatlashdim. Umumiy xulosalarim shu bo'ldi: farmondan xabardor ekan, ilmiy adabiyotlar tarjima qilinishi asta-sekinlik bilan amalga oshirilyapti, chunki mutaxassis, ilmiy kishilar bor bo'lsa-da, vaqt masalasi muammo ekan, tarjimada atamashunos mutaxassisning ham ishtiroki lozimligi ishini yanada murakkablashtirar ekan va eng asosiysi 85% adabiyotlar rus tilida ekan (albatta, taxminan bo'lsa kerak), bu – o'zbekzabon talaba uchun katta qiyinchilik deb o'ylayman.

Mohidil opa rahmat aytib xayrlashdim. Yana boshqa ikki ustoz bilan ham gaplashdim. Ular esa o'z yo'nalishida adabiyotlardan muammo yo'qligini aytib, e'tirozlarimni keskin rad etishdi. Sal ikkilanib talabalar fikriga qiziqdim. Maqsadimni tushuntirgach ba'zilarining yuzida xaloskor yoki qahramonga duch kelgan odamlardagidek ifodani ko'rib yanglishmayotganimdan xursand bo'ldim. Ular ham ilmiy adabiyotlarning o'zbek tiliga o'girilishi yaxshi ish bo'lishini aytishdi. TTA xodimlaridan biri (ismini ochiqqlashimni unchalik istamagani uchun yozishni joiz topmadim) agar yuqoridagi mansabdorlar ilmiy adabiyotlarni tarjima qildirmoqchi bo'lsa, avvalo o'shani yaxshi biladigan mutaxassisni chaqirishi, ishdan xalos qilishi, moliyaviy tomondan qarashishi, yoniga yordamchi(lar) berishi (chunki kompyuterni yaxshi tushunmaydigan mutaxassislar ham bor) kerakligini ta'kidladi. Ammo ularga bunday takliflar bo'lganligidan xabari yo'qligini aytdi. Afsus.

Xulosa qiladigan bo'lsam:

1. Bu tizimda o'zbek tiliga o'tish jaryoni juda sekin.

2. Davlat tilini rivojlantirishga o'zbek tilidagi ilmiy adabiyotlarning kamligi monelik qilyapti. Tarjimalarni ko'paytirishda esa alohida e'tibor, mablag' hamda nazorat kerak.

3. Chet tilini o'rganish yaxshi narsa bo'lsa ham na TTA talabalari, na muolajaga kelgan bemorlar bunga majbur. Talabalarining diqqati sog'likni saqlashga qaratilsin. Til o'rganish esa hammaning ixtiyori. O'ziga kerakli ilmni ona tilida olib, bor e'tiborini shunga qaratilsin.

Nahotki, o'z tilimiz obro'sini tiklash shunchalar murakkab bo'lsa?! O'lka-miz qaram bo'lmisidan oldin rus tili bu qadriga ega emasdi. So'ngra mustamlakachilar rus tilini olib kirib shunday bir darajaga qo'yishdiki, uni pasaytirishga xalqda jur'at yetmagandir. Chunki tobe edi. Endi esa mustaqilmiz. Erkin davlatmiz. Ammo o'z yerimizda o'zganing tilini bilmasligimiz aybdek go'yo.

"Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Prezident farmonining 2-ilovasida shunday izoh bor: "2020–2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi tegishli davrga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlardan kelib chiqib, har ikki yilda Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan alohida "Yo'l xarita"si orqali bosqichma-bosqich amalga oshirib boriladi". Birinchi ikki yillik 2020–2022-yillardir. 2022-yilning tugashiga juda oz vaqt qoldi. Qani, kuzataylik-chi, sarhisob qanday bo'lar ekan, mas'ullar qay darajada ado etishar ekan? Kutamiz.

Samariddin YO'LDOSHOV,
O'ZJOKU talabasi

Til mo'jizalari

Ba'zi so'zlar asrlar davomida ma'no o'zgarishiga uchraydi, hatto butunlay teskari ma'no kasb etishi mumkin.

Masalan, "gumashta" so'zini olaylik.

"Falonchining gumashtasi" deyilsa, bugun ko'pchiligimiz "ha, bu o'sha Falonchining hamtovog'i ekan-da" deb o'ylaymiz, kamdan-kam odam gumashta deganda biror savdogar-tadbirkorning vakili, ishonchli odamini tushunadi.

O'zbek tilining izohli lug'atiga ko'ra, XX-asr boshlariga qadar Turkistonda katta savdogar boylarning joylarda savdo ishlari yuritadigan ishonchli kishisi, vakili – gumashta deb atalgan.

Misol:

Mehmonxonalaridan birida Mirzakarimboy o'z gumashtasidan hisob olar edi (*Oybek, "Qutlug' qon"*).

"Basir"ning taqdiri ham "gumashta"nikiga o'xshab ketadi. U bugun ko'pchilik tushunganidek ko'zi ojizlikni anglatmaydi, balki "basir" aslida ko'zi o'tkir, o'ta ziyrak degan ma'nolarni bildiradi.

Huquqiy nashrlarda ba'zan "Falonchi bir insonning mol-mulkini o'zlashtirishdek g'arazli niyatini amalga oshirish uchun..." degan jumlaning o'qib qolamiz. Ushbu gapdagi g'arazdan murod yomon niyat ekan ko'rinib turibdi va buning bugungi tushunchamiz bo'yicha hech qanday g'alat (xato, yanglish) joyi yo'q albatta. Ammo "g'araz" bizga nima yomonlik qildiki, biz bugungi avlodlar bu mo'ysafid kalomga butunlay qora to'n kiydirib qo'ydik? Yoki in chindanam yomon so'zmi? Yo'q, sirayam unday emas. U ham arabchadan o'zlashgan bo'lib, shunchaki, maqsad, niyat, mudao degan ma'nolarni anglatadi.

Esilasangiz, hazrat Navoiy, Bobur mirzo asarlarida bu so'zni aynan shunday ma'noda qo'llaganlar.

Misol:

Zohir o'lmoqtin ushbu bo'ldi g'araz, Ki kerak har ne qilg'anig'a evaz. (*"Sab' ai sayyor" dan*)

"Bu bitilganlardin g'araz shikoyat emas, rost hikoyatdurkim, bitibturmen" (*"Boburnoma" dan*).

Quyidagi so'zlarni esa vaqt o'tishi bilan butunlay teskari ma'no kasb etgan deb bo'lmaydi, biroq ularning ma'nolari sezilarli darajada o'zgarani rost. Masalan, "cho'pon" so'zini olaylik.

Bugun uning yaylovda ushoq mol (qo'y, echki) boqadigan kishi ekanini hamma biladi. Hech kim uni amaldor demaydi, holbuki, bundan ming yillar muqaddam cho'ponlar ancha martabali kishilardan sanalgan. Ya'ni, Mahmud Qoshg'ariy ma'lumotiga ko'ra, qishloq oqsqoqlining yordamchisi cho'pon deb atalgan.

Shu ma'lumotni o'qib, qishlog'imizda nishonlanadigan Yilboshi esimga tushdi.

Uylarda pishirib keltirilgan ko'k soma, pichak, barak kabi milliy taomlar tortilgach, ziyofat so'ngida, albatta, cho'pon saylash marosimi bo'ladi. Bilasiz, el har



digan qirgqa yaqin istiloh bo'lsa-da, lekin "palma" so'zi uchramaydi.

Bizda-chi? Ota-bobolarimiz harb ilmining, dehqonchilik, bog'dorchilik va chorvachilikning pirlari bo'lishgan, bu esa dunyoda hududi bo'yicha eng keng tarqalgan (bu borada turkiy tilga yetadigani yo'q), go'zal va boy til hisoblanmish turkiy til lug'at xazinasida o'z aksini topgan. Bunga amin bo'lish uchun Mahmud Qoshg'ariy bobomizning "Devonu lug'otit-turk" asarini o'qish kifoya.

Uni mutolaa qilish asnosida ko'plab ajoyib so'zlarimiz, turli sohalarga oid atamalar ma'nosini bilib olamiz.

Masalan, ota-bobolarimiz jonivorlarning yoshi, rang-tusi, jismoniy va

tishak deyilganini eshitmagan bo'lsangiz kerak.

Atan deganda axta qilingan tuya tushunilgan.

Sizga qanchalik erish tuyulmasin, uloq so'zi inson bolasiga nisbatan qo'llaniladigan o'g'il so'ziga juda yaqin. Ya'ni, uning asli – o'g'loqdir.

Agar ranjimasangiz, biz o'zga tillarga naqadar o'ch va oshufta, o'z tilimizga esa qanchalar e'tiborsiz ekanimizga yana bir misol keltiramiz.

Biz jonivorlarga nisbatan qo'llaydigan hayvon va jonzot istilohlari arab va fors tillaridan kirib kelgan. Aslida esa, qadim o'zbek tilida ular umumiy tarzda tirig (ya'ni, tirik) deb atalgan.

Bobolarimiz juda sodda, shu bi-

KO'RGA AYLANGAN BASIR

teskari ma'noli so'zlar haqida g'arazli maqola

kinga ham molini ishonib topshirmaydi, bo'lajak cho'pon to'g'ri, halol, diyonatli odam bo'lishi kerak. Shuning o'zi ham cho'ponlikning mashaqqatli va naqadar sharaflil kasb ekanini ko'rsatadi, xuddi dehqonchilik singari.

Darvoqe, "dehqon" so'zi ham asrlar osha ma'no o'zgarishiga duch kelgan istilohlardan biridir. U qadimgi forscha (ba'zi manbalarga ko'ra, so'g'dcha) so'z bo'lib, qishloq hokimi degan ma'noni anglatgan.

Buni men o'zim o'qigan manbalarga suyanib aytayapman. Shu haqda bir ijodkor do'stimning fikrini so'rasam, u "deh" qishloq bo'lsa, "qon" degani, ehtimol, "qoon"dir, deb qoldi. Menga bu fikrda jon bordek tuyuldi, chunki Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'atida "qoon" – "xonlar xoni, xoqon, buyuk podshoh", deb izohlangan. Do'stimning fikri to'g'ri chiqsa, demak, "xoqon" "hokim"ga aylanib, bu yerda shunchaki ma'no torayish hodisasi yuz bergan bo'ladi. Bu, albatta, bir taxmin.

Ha, aytgancha, Mahmud Qoshg'ariy lug'atida dehqon – tariqchi deb berilgan ("tariq" so'zidan).

Tilimizdagi faol so'zlardan biri yurt, o'lka, vatan ma'nolarini anglatuvchi "diyoyor"dir. Bu so'z asli arabcha "dar" (uy) ning ko'pligidir. "Uylar"ning ko'payib, kengayib, rostakam vatan, mamlakatga aylanishi, menimcha, yuz foiz mantiqlidir.

"Qarshi" atamasi (bu "qarama-qarshi"dagi "qarshi" emas) bir zamonlar

shoh qasrini anglatgan.

Bugun hech kim shaftoli yoki qarolini o'rik demaydi. Holbuki, ming-ikki ming yillar burun ota-bobolarimiz meva so'zi o'rinda "o'rik"ni ishlatgan, faqat eruk shaklida. Ya'ni, shaftoli – "to'lug'eruk", qaroli – "qora eruk", o'rikning o'zi esa "sariq eruk" deb atalgan. Bunday misollar ko'p.

Til – juda go'zal hodisa. U bir joyda qotib qolmaydi, o'sadi, rivojlanadi, uni o'zingiz sevsangiz, boshqalar ham hurmat qiladi.

Kimda-kim o'z onasini – ona tilini sevmasa, qadrlamasa, boshqa tillar oldida obro'sini bir pul qilishga urinsa, u kimsani Xudo urgani shu. Bundan o'zi asrasin.

ASL KO'MCHU SO'ZLARIM

Til xalqning geografik o'rni, turmush tarzi, iqlim, atrof-muhit bilan bog'liq holda rivojlanadi.

Abdusuhur Abdusazizovning "Tillar olamiga sayohat" kitobida aytilishicha, Braziliya hindilari tilida to'tiqush turlari ko'p so'zlar bilan ifodalanadi. Lekin "to'tiqush" degan atamaning o'zi yo'q. Bu so'z mazkur qush turi umuman bo'lmagan mamlakatlarda qo'llaniladi.

Sahroyi Kabirda yashovchi xalqlar tilida esa palma daraxtining 60 ga yaqin turi va ularning har birini ifodalovchi alohida so'zlar mavjud. Ammo "qor" so'zi yo'q. Qorli o'lka Sibirda yashovchi neneslar tilida esa aksincha, qorning turlarini ifodalay-

boshqa xususiyatlariga qarab har birini alohida nomlar bilan atagan.

Masalan, yosh baytal – qisraq, erkak tuya – bug'ro (Bug'roxon ismi shundan), urg'ochisi ingan yoki tetir (hozir faqat moyani bilamiz), 6 oylik uloq chebush, minilmagan toy to'sun deb atalgan.

Biz bugun pishak(mushuk)ning erkagini ham, urg'ochisini ham pishak deyaveramiz. Farqlamoqchi bo'lsak, erkak pishak, urg'ochi pishak deyishimiz mumkin. "Devon"ga ko'ra, ular alohida nom bilan atalgan. Ya'ni, ajdodlarimiz bu jonivorning urg'ochisini chetuk, erkagini ko'k chetuk deb atashgan. Bu o'g'uz turkiylar qo'llagan so'z. Yana bir turkiy qavm – chigillar shevasida esa erkak pishak ko'vuk mush iborasi bilan ifodalangan.

To'qli deganda, 6 oylik qo'zi qo'chqor, boqlon deganda, yosh va semiz qo'zi tushunilgan.

Qir ot – saman ot deb izohlangan, Go'ro'g'li bovaning G'iroti shu emas-mikan, deb o'ylab qoldim.

Biz arabchadan o'zlashtirib timsoh deb ataydigan yirtqich eski o'zbek tilida alavan deyilgan.

Burgutni salobat va viqori, kuchli va jasurligidan bo'lsa kerak, qoraqush deb ulug'lashgan.

Qirg'iy – ilqush, lochin – o'runqush, biz yana arab tilidan olgan tovus esa yunqush deb atalgan.

Tovishg'on(tovushqon)ning yovvoyi quyon ekanini bilasiz, lekin bir yashar buzoqning turbi, ikki yashar qo'yning

Yondaftarchangizga

"DEVONU LUG'OTIT-TURK"DAN

Beglanmoq – bekli bo'lmoq, erga tegmoq.

Yo'g'rut – qatiq (yogurt shundan kelib chiqqan).

So'rg'u – qortiq, qon oladigan asbob.

Tergi – dasturxon.

Qarshi – shoh qasri.

Elkin – musofir.

To'lg'amoq – o'ramoq, o'rab olmoq (to'lg'ama harbiy taktikasi nomi shundan kelib chiqqan).

Tutg'uch – birinchi ovqat.

Bichg'uch (bichqich) – qaychi.

Qo'ldosh – yaqin kishi.

Bo'ksak – bo'ksa, ko'krakning yuqori qismi.

Muk – egilib bukilish ("muk tushib", iborasi shundan).

lan birga nihoyatda tiniq fikrlaganlar. "Kaminaning bu so'zni aytmog'indan murodi ulkim..." singari forsiy va arabiy til-adabiyot ta'siridagi ortiqcha jim-jimlar turkiylarga mutlaqo yot bo'lgan. Chunki ularning o'zi dangalchi edi, gapni aylantirib-burishmasdi, oqni oq, qorani qora deb qo'ya qolishardi.

Asil turkiycha vazndagi she'r va qo'shiqlarning o'qishliligi, sodda va tushunarli ekanining boisi ham shunda.


"Devon"ni varaqlab o'tirib, yana bir ajoyib so'zimizga duch keldim. Bu "erga tegdi, turmushga chiqdi" degan ma'noni anglatuvchi "beglandi" fe'lidir.

Qarang, "erga tegdi" degan dag'al ibora qaerda-yu, "beglandi – begli bo'ldi (bekli bo'ldi)" degan nafis ifoda qayoqda!

Darvoqe, sarlavhadagi so'z haqida ham ikki og'iz.

Ko'mchuning o'zagi ko'mmoq fe'lidagi "ko'm" bo'lib, u yerga ko'milgan boylik, ya'nikim, xazina degan ma'noni bildiradi.

Elmurod KARVONLI,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
a'zosi





Ona tilimi yoki har sohadan bir shingil?

“U yo’qolsa, tamaddun tugaydi, u salomat bo’lmasa, millat sochilib ketadi. Shuning uchun esi o’zida xalq, erki o’zida davlat til muhofazasini muhtasham maqsad deb biladi, uni taraqqiy qildirish qayg’usini bir on unutmaydi”.

Nizomiddin MAHMUDOV

Yuqoridagi fikrlar 6-sinfning “Ona tili” darsligida bor. Biroq mualliflar o’zlari keltirgan ushbu ajoyib fikrlar mag’ziga unchalik e’tibor qaratishmagan ko’rinadi.

Ona tili fanini o’qitishning maqsad va vazifalari nimalardan iboratligi ma’lum. Har bir inson, eng avvalo, o’z ona tilida mukammal gapira olishi va o’zgalarni tushunishi, muloqot qila olishi lozim. Maktablarda ona tilini o’qitishning yana bir muhim vazifasi uning ichki qurilishini o’rgatish hamdir (har holda men shunday deb hisoblayman). Muayyan bir millat vakili o’z tilining grammatik qurilishi va hodisalari, boshqa tillardan qaysi jihatlar bilan farqlanishi yoki o’xshashligini, ona tilining ham xuddi matematik amallar kabi qiziqarli hodisalari mavjudligini va o’z ona tilining naqadar boyligini bilishi va buni his qilishi darkor. Ammo so’nggi paytlarda ona tili fani tushunchasi boshqacharoq tus ola boshladi, nazarimda. Aniqtirg’i, yangi darsliklarni ko’rib shunday deyish mumkin.

Avvalo, yangi darslik chiqdimi, u mamlakatning barcha maktablariga o’z vaqtida yetib borishi kerak. Bizga 6-sinf darsligi 2-chorakda yetib keldi. Adabiyotdan esa hali ham darak yo’q. 1-chorak mavzularini o’tmadik hisob. Mavzular haqida qisqacha tushuncha berib o’tgan bo’ldik va uyd mustaqil o’qib chiqishlarini vazifa qilib berdik.

Yangi avlod darsliklari haqida ijobiy fikr bildirayotgan o’qituvchilar ko’p. Darsliklarning ba’zi jihatlarini, ya’ni o’quvchini fikrlashga undaydigan matn va ma’lumotlarning kiritilganligini e’tirof etishimiz kerak, albatta. Ammo bunday matn va mavzular sanogligina, xolos. 6-sinf darsligidagi “Ko’z nuri asraylik”, “Jigar – eng mehnatkash a’zo”, mavzulari shular jumlasidandir. Biroq, afsuski, menda (nafaqat menda, ko’pchilik o’qituvchilarda, shu bilan birga ota-onalarda ham) darslik borasida tanqidiy fikrlar ko’proq.

Darslik yaratish oson ish emasligini hammamiz bilamiz, mualliflarning bu borada ancha ter to’kkanligini inkor qilmaymiz, mehnatlarini qadrlaymiz, albatta. Biroq yangi darsliklar ustida mualliflar qay darajada mehnat qilgan bo’lsalar ham, ko’rinib turgan, lekin mualliflar tan olishni istamayotgan ba’zi jihatlar borki, bundan ko’z yumish aslo mumkin emas. O’ttiz yil mobaynida turli xil darsliklar bilan ishlab ko’rdik, ammo hech biri bu yilgi darsliklar kabi hafsalamizni pir qilmagan edi. Balki zamon o’zgargandir, balki o’quvchilarni hayotga tayyorlashning yangi dasturlarini yaratish kerakdir, balki bilim berish tizimini tubdan isloh qilish lozim bo’lgandir, bunisini bilmadim. Ammo

ta’limda inqilob qilish kerak bo’lgan bo’lsa, buni ona tili fanidan boshlamaslik kerak edi. Yangi darsliklar mundarijasini ko’rib, ona tili darsligini emas, biror ensiklopediyani varaqlayotganga o’xshaydi odam. Ona tili darsligi bo’lganligi bois til hodisalariga oid mavzular bosh mavzu qilib berilganidayam ko’ngilga ancha taskin bo’lardi. Mavzularga va matnlarga qaralsa, ona tili fani o’rniga boshqacharoq nom qo’yish kerak. Chunki bu darslik o’quvchiga millat ruhi, millat ko’zgusi bo’lgan ona tili haqidagi ma’lumotlarni berishdan ko’ra, turli tabiat hodisalari, salomatlik muammolari, chiqindilar, dehqonchilik, soliqlar, turli xil infografikalar, deputat va saylovlar, ekologik muammolar, hayvonlar haqida ma’lumotlar berishga mo’ljallangandek. Shuningdek, maqsadli xarajatlar, soliqlar, sharq taronalari, Oliy majlis yoki mualliflik huquqi haqida o’quvchilar bilgani yaxshi, ammo buni aynan ona tili darslari orqali emas, musiqa, huquq va tarbiya fanlari vositasida o’rgatilsa, maqsadga muvofiq bo’lar edi. Ona tili darsida fizika faniga tegishli ma’lumotlarni, hodisalarni o’rganishning qanday zarurati bor? Agar bunday ma’lumotlar o’rniga “Tutilmay gapiraman”, “Yozuvchi bo’lish osonmi?”, “Boburnoma” kabi mavzular koproq kiritilganida, fanga ancha yaqin bo’lardi va biz ham ayrim mavzular qarshisida esankirab qolmasdik. Har bir o’qituvchi o’z fanining bilimdoni bo’ladi, ko’proq o’z fani doirasida izlanadi. Yangi darsliklar esa ona tili o’qituvchisidan o’z fanidan tashqari yana bir necha fanlardan ham yaxshigina xabardor bo’lishni talab qilmoqda. Behora o’qituvchi grammatika soddalashtirilbdi deb xursand bo’lolmaydi, u endi umuman faniga begona

bo’lgan manbalarni o’rganishga majbur! Chunki o’quvchi oldida uyaliq qolmaslik uchun global isish, chiqindini qayta ishlash, jigar, C vitamini, veterinariya, infografika, turon yo’lbarsi, fizika, tashqi savdo aylanmasi va hokazolar haqida o’quvchidan ko’ra ko’proq ma’lumotga ega bo’lmog’i lozim. Mayli, bu borada bizga internet yordam beradi, bahonada bilimimiz ko’payadi. Ammo bunday davom etsa, ona tili fan sifatida intihoga yuz burishi turgan gap. Men bu qarashlarim bilan darslikda grammatikaga oid ma’lumotlar yo’q, deyish fikridan yiroqman. Nazariya bor, biroq u matnlar soyasida qolib ketgan! Bori ham ona tili darsligi bo’lmay qolmasligi uchungina zo’rma-zo’raki kiritilganga o’xshaydi. Bilmadim, tilshunoslik nazariyasini izchil o’rganishning qanday yomon tomoni bor ekanki, darsliklarda mavzular aralashtirib yuborilgan. Masalan, 7-sinfda “Kelajak kasblari” mavzusida fe’llarning yasaliishi, yuklamalar, gap bo’laklari haqida o’rgatiladi. Nega? Bunday o’rgatishning afzalligi nimada? Deyarli barcha mavzular shu tarzda joylashtirilgan. Bog’lovchi va yuklama haqida ma’lumot berilgan-u, ko’makchi haqida ma’lumot yo’q. Agar 6-sinfda ko’makchi mavzusi berilgan-ku, deyilsa, bog’lovchi va yuklama haqida ham 6-sinfda batafsil ma’lumot berilgan edi. 6-sinfda o’rganilgan mavzu 7-sinfda yana o’rganilmoqda. Hisob-o’lchoy so’zlari mavzusi ham yo 6-sinfda, yo 7-sinfda o’rganilsa kifoyamasmi? 6-sinf darsligining boshida iboralarga doir mashq nega berilganini ham tushunmadik. Iboralar 5-sinfda o’tilganligi uchun takrorlashdir deb o’yladik. 6-sinfda “Davlatni kim boshqaradi?” mavzusi xuddi darslikka adashib tushib qolgan-day. Maqsad qisqartirma otlar va bosh harflar imlosini o’rgatishmi yoki davlat boshqaruvi haqida ma’lumot berishmi? Bu ma’lumotlarni o’rgatish huquq fanining vazifasi emasmi? Buni tushunishga ham aqlimiz ojizlik qildi. 6-sinf

o’quvchisiga soliqlarni to’lab borish zarurligini bu darajada uqtirishning nima keragi bor? Soliqlarning ahamiyatini tushuntirish ona tili fanining vazifasimi? Qolaversa, tuman hokimiga xat yozib, soliqlardan tushgan mablag’ga hududdagi qaysi muammoni hal qilish mumkinligi haqida tavsiya berish vazifasi 6-sinf o’quvchisining yoshiga mos emas. Ular hali o’yin bolasi-ku. Bu topshiriqni 10-11-sinf o’quvchisi bajarishi mumkin.

O’qituvchi va o’quvchilarga qiyinchilik tug’dirayotgan yana bir muammo shuki, mashq va topshiriqlar raqamlanmagan. Buning qanday afzalligi borligini har qanaqasiga o’ylab ko’rsangiz ham topolmaysiz! Darslik mualliflari shartli belgilar qo’yilganligini ta’kidlashlari turgan gap, ammo bu javob emas. Qolaversa, sinfdagi barcha o’quvchilarga bu belgilarni yod oldirolmaysiz. Yod olgan taqdirda ham bir darsning o’zida bir xildagi shartli belgi ostida bir nechta mashq va topshiriq berilganligi sababli, baribir, chalkashliklar bo’ladi.

Xulosa qilib aytganda, 6- va 7-sinf yangi ona tili darsliklari biz kutgandek ajoyib bo’lib chiqmadi. (Biroq g’aroyibligi bor). Azizlarim, ona tili fanini o’qitishga befarq qaray olmaydigan jonkuyar hamkasblarim! Bu gaplar oddiy bir qishloq o’qituvchisining g’or fikrlari. Uni qanday qabul qilsangiz ham ixtiyor o’zingizda. Faqat ayrim insonlardan iltimosim shuki, menga nimalarnidir uqtirishga, tushuntirishga urinmang! Baribir, ona tili fanining bu shaklda o’qitilishini yoqlamayman. Ona tili ta’limini tubdan o’zgartirish bunday bo’ladigan bo’lsa, grammatikani soddalashtirish shunday bo’lsa, avvalgi holda qolsin! Mayli, biz o’quvchilarga ona tilimizni murakkab nazariyalar orqali o’rgataylik (har holda fanimizga mutlaqo begona bo’lgan ayrim matnlar ustida ishlashdan ko’ra osonroq va foydaliroq), yuqorida keltirilgan turli-tuman mavzular haqida bilim berishni esa tegishli fan o’qituvchilariga qo’yib beraylik! (Har kim o’z ishini qilsin!) Grammatika hayotda kerak bo’lmaydi degan fikrni yoqlovchilarga javobim shuki, hayotda kerak bo’lish-bo’lmagligidan qat’i nazar, har qanday millat vakili o’z ona tili grammatikasini bilishi shart! Hayotda kerak bo’lmaydigan mavzular juda ko’p boshqa fanlarda ham. Ana shular haqida bosh qotirishsin, ONA TILI fanini aralash-quralash darslikka aylantirmasdan! Ona tili fanimi, demak, darslikda ona tiliga xos bo’lgan ma’lumotlar berilishi kerak.

Agar barcha sinf darsliklari shu zaylada o’zgaradigan bo’lsa, 4-5 yildan keyin OTMlarga kirish imtihonlarida savollar ona tili grammatikasidan bo’ladimi yoki darslikdagi matnlar yuzasidanmi? Agar grammatikadan bo’lsa, darslikdagi nazariya juda kam va juda oddiy, abiturient testlarni o’ynab o’tirib yechadi. Mabodo savollar matnlar bo’yicha tuziladigan bo’lsa, unda bu imtihon ona tilidan bo’lmaydi!

Xullas, yangi ona tili darsliklari xususida mutasaddilar chuqurroq o’ylab ko’rishlarini istaymiz.

Xosiyat JUMABOYEVA,
Amudaryo tumanidagi
37-maktabning oliy toifali ona tili va
adabiyot fani o’qituvchisi

Tinish belgilari

Aleksandr KANEVSKIY,
rus yozuvchisi,
shoiri va dramaturgi

Odam vergulni yo’qotdi, qo’shma gaplardan qochib, soddaga gaplarni gapiradigan bo’ldi. Sodda gapirib, sodda fikrlaydigan bo’lib qoldi.

Keyin u undov belgisini yo’qotdi va sokin, bir xil ohangda gapira boshladi. Endi u hech narsadan quvonmaydigan, hech narsadan xafalanmaydigan va hamma narsaga his-hayajonsiz qaraydigan bo’ldi.

Keyinroq so’roq belgisini ham yo’qotdi va ortiqcha savol bermaydigan bo’ldi. Endi uni hech narsa hayratga solmas, qiziqitmas edi.

Yana ikki yildan so’ng ikki nuqtani yo’qotdi va odamlarga o’z qilmishlarini izohlamaydigan bo’lib qoldi.

Umrining oxirida u odamda faqat qo’shtirnoqlar qoldi. Nega desangiz, unda birorta ham mustaqil fikr qolmagan va hamma gaplari ko’chirma edi.

Xudoyberdi KOMILOV
tarjimai.



Ozod Sharafiddinov maqolalarida til qadri

“Har gal ona tilimiz bilan uchrashish men uchun ulug‘ bayram, ona tilim bilan muloqotga kirishish, uning to‘g‘risida mulohaza yuritish menga cheksiz huzur baxsh etadi. Bir zamonlar bizga dorilfunudga millatning nima ekanligini o‘rgatishib, uning eng asosiy belgilaridan biri til birligidir, butun xalqning bir mushtarak tilga ega ekanligidir, deb uqtirishgan edi”. Albatta, til birligini teran anglay olgan insongina millat tushunchasini chuqur his qila oladi va uning er-tangi kuni haqida qayg‘uradi. Ozod Sharafiddinovning Ona tilimizga bag‘ishlangan maqolalarida ham ko‘proq tilimiz ahvolidan qayg‘urish hissi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Chunki adabiyotshunos, avvalo, ziyarak kuzatuvchi sifatida tilimiz haqidagi fikr-mulohazalarni, jarayonlarni, birma-bir g‘alvirdan o‘tkazib boradi. Uning tarixini g‘alib, tushunarsiz, chigal deb bilganlarni esa suzishni bilmagan odamning suvni ko‘rib vahima qilishiga o‘xshatadi. Bu o‘xshatish aynan turkiy tilimiz asoschisi Alisher Navoiy asarlarini tushunishga va o‘rganishga erinayotganlarga juda mos keladi. Aslida ham shunday: nimani o‘rganish, tushunish qiyin bo‘lsa, uni g‘alib, tushunarsiz deb jar solish oson, ammo bu degani ona tilimizga tosh otish degani emas, nazarimda. Shu o‘rinda adabiyotshunos ona tilimizning etimologiyasi, o‘zlashma so‘zlarning nutqimizdagi ahamiyati, gazetani ro‘znoma, jumalni majalla, arxeologiyani qadimshunoslikka almashtirishga urinib chirayotganlar xususida shunday deydi: “Gap shundaki, til zinhor-bazinhor zo‘ravonlikni ko‘tarmaydi, sun‘iylikka toqati yo‘q. Undagi lug‘at boyligini dekretlar yo‘li bilan ko‘paytirib ham, ozaytirib ham bo‘lmaydi. Yuzlab, balki minglab so‘zlar borki, ular o‘zbek tiliga qanday kirgan bo‘lsa shunday o‘rnashib qolgan — uni bugun ombir bilan ham sug‘urib olib tashlay olmaymiz”. Ushbu fikrlar bugun ham o‘z dolzarbligini yo‘qotgan emas, faqat o‘zlashma so‘zlardan foydalanish, yangi so‘zlarning nutqimizga kirib kelishi biroz boshqacha tus olgan. Ya‘ni, yangi kirib kelayotgan chet tili so‘zlari yoki endi o‘zlashayotgan o‘zlashma so‘zlardan foydalanib so‘zlashish zamonaviylik, zamondan ilgari lab ketgandek ko‘rinish vositasiga aylangan. Misol

uchun: “sayohat jurnalistikasi” emas, “travel jurnalistikasi”, “mavzu” o‘rnida “tema” yoki “tadbirkor ayol” demasdan, “biznes women”, yoshlar orasida esa “qisqasi” demasdan “karochi” kabi. Ozod Sharafiddinov ommaviy axborot vositalarini ham doimiy ravishda kuzatib boradi. Yutuq va kamchiliklarni tahlil qiladi, savodsizliklar, e‘tiborsizliklarga esa ko‘zgu tutadi. Chunki adabiy til unsurlarini xalqqa tushuntirish, uning qadr-qimmatini oshirish, shubhasiz, OAVning eng muhim vazifasidir. Tanqidchi, ayniqsa, televideniye sohasidagi yo‘l qo‘yilgan xatoliklarni sanab o‘tib, tanqid ostiga oladi. Mana Ozod Sharafiddinov OAVda ko‘rib, mulohaza qilib, ko‘z yumib keta olmagan chala jumalalar: “Xorazmda Amudaryo bo‘ylab yangi ko‘prik qurilishi davom etmoqda” deb xabar berishdi. Ko‘prik daryoga ko‘ndalang qurilardi, “daryo bo‘ylab” uzunasiga quriladigan ko‘prikn ham topishibdi-da azamatlar! “Yaqin o‘n yillikda dengizda suzib yuradigan shaharlar chiqar ekan. Ular 500 km tezlikda suzar ekan”. — 500 km tezlikda suzgan shahar qayog‘ga borar ekan? Har o‘n kunda biror qit‘aga borib urilib turarmikan? “Ben Laden o‘z ajali bilan halok bo‘lgan”. Sira-sira qovushmagan gap — o‘z ajali bilan o‘lgan odam halok bo‘lgan hisoblanmaydi. Ushbu jumlaning esa tanqidchi g‘aliblik va noaniqlikda birinchi o‘ringa munosib deb baholaydi: “Kelinglar, bobolarimiz ot izini toy bosar deganlaridek buyuk bobokalonimizning qadami yetgan joylarni biz ham sayohat qilaylik”. Ozod Sharafiddinov ilg‘ay olgan, tilimiz obro‘sin tushirayotgan bu jumla va gaplarni o‘qib turib, o‘zim ham kuzatib, eshitib yurganlarim esimga tushdi-yu, ahvolimiz kechagidan-da og‘irroq ekanligini angladim. Shu kunlarda televideniye-dagi mashhur kanallarning birida diktir: “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni rivojlantirish xususida uch kunlik seminar trening tashkil etildi” deb lavhaga naybatni berdi. Qadimdan bobolarimiz bekorga “O‘ynab gapirang ham o‘ylab gapir” demagan ekanliklariga amin bo‘ldim.

Mashhura ABDURAYIMOVA,
O‘ZJOKU talabasi

Ma‘rifatparvar shoir Avaz O‘tar so‘zi bilan aytganda, til inson va olamni bog‘lab turuvchi zanjir, koprik bo‘lib, xalqlarning o‘ziga xosligida ham uning roli beqiyos. Taassufki, tig‘i o‘tkir xanjar-da qontalash qilolmagan yurakni ham yaralashga qodir — shu birgina til. Ota-ona va farzandlar, opa-singil-u aka-ukalar, boringki jondek yaqin qardoshlarni ham bir-biridan yiroqlashtiruvchi, sovuq munosabatlarning “ko‘zini ochguvchi” ham til. U albatta so‘zlaguvchining fahm-farosati, aql-idroki sabab yuqoridagi kabi yo jon baxsh etuvchi, yo jon oluvchi ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

“Til vositayi robitayi olamiyondir”

Demak, til bizning his-tuyg‘ularimiz, kayfiyatimizni namoyon etish, jamiyatda insonlar bilan munosabatlarni ifoda etishda muhim ahamiyatga ega ekan, bizi, uning istiqbol, rivoji uchun biror harakat qilyapmizmi? Ma‘lumotlarga qaraganda, ayni paytda dunyo bo‘ylab har kuni bir til tanazzulga yuz tutmoqda, ya‘ni iste‘moldan chiqmoqda. Balki o‘sha tilda so‘zlovchi aholi soni kamayib borayotgani sabab o‘z ona tillarida gapirishni unutib, o‘zga tilni qabul qilayotgandir, balki boshqa sabab bilan, bunisi bizga qorong‘u.

Necha yillik boy tarixga ega bizning ona tilimiz ham 20–30 yildan keyin o‘sha tillar qatorida bo‘lmaydi deb kim kafolat bera oladi? Bugungi kundagi kuzatuvlarim, ayniqsa yoshlarimiz orasidagi ajnabiycha so‘zlashuv, o‘zbek tilidagi ba‘zi so‘zlarning unutilishi tilimiz tanazzul chegarasida turganining ifodasidek, nazarimda.

Qadimdan meros bo‘lib qolgan turkiy o‘zbek tili bugungi kunda o‘z jilosini yo‘qotib bormoqda. Afuski, bunga sababchi ham o‘zimiz. Yoshlar, nafaqat yoshlar, butun jamiyat orasida xorijiy so‘z va jummalarni o‘z ona tiliga qo‘shib so‘zlash urf-

ga kirmoqda. Oddiy savol tug‘iladi: Nega? Bunga sabab yurtimizda chet tillariga talab ko‘payganini yo ko‘p narsalarning chetdan ek-sport qilinishimi? Bugun kimning so‘ziga quloq tutma “karochi”, “OK”, “prosta”, “dalshe”, “vap-she”, “obed”, “davay”, “peshexod”, “svet”, “xolodilnik”, “vilka”, “och-ki”, “noski”, “biryuk”, “vecherniy”, “kapusta”, “chesnok”, “magaz-in”, “astanofka”, “pastayanni”ga o‘xshash so‘zlar bilan “boyitilgan nutq”ga guvoh bo‘lamiz. Ajabo, na-hot? Yo shunchalar “bilmasvoy”ga aylandikmi? Bu so‘zlarning o‘zbekcha muqobil shakli bor, lekin juda kamchilik ishlatadigan davrga kelib qoldik.

Buning har tomonlama oldini olishimiz kerak. Farzandlarimizni yoshligidan o‘z tilida, ortiqcha o‘zlashmalarsiz so‘zlashishga, uni qadrlashga o‘rgataylik. Atrofimizdagilarga tilimiz boyligini, undan o‘zligicha foydalanishni targ‘ib qilaylik! Tilimizni tarixda qoldirish emas, uzoq kelajakka qadar olib chiqish o‘z qo‘limizda!

Mohtob SHAROFIDDINOVA,
Buxoro davlat universiteti
jurnalistika
yo‘nalishi talabasi



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA‘LIMI VAZIRLIGI HUZURIDAGI RESPUBLIKA TA‘LIM MARKAZI ISHGA TAKLIF ETADI

Yaratilayotgan darsliklarni rus, tojik, qirg‘iz, qozoq va turkman tillariga tarjima qilish uchun malakali tarjimon-o‘qituvchilarni ishga taklif qilamiz.

Oylik maoshi: shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Talablar:

Tarjimonlik sohasida kamida 3 yillik mehnat staji;

Qardosh tillar va ona tili stilistik me‘yorlarini bilishi;

Tarjima matni tegishli bo‘lgan soha bo‘yicha bilim va soha terminologiyasini bilish.

USTINLIKKA EGA BO‘LISH TALABLARI:

– Dasturlar bilan ishlash(elektron lug‘atlar, punto switcher, CAT), shuningdek sensorli terish;

– Umumta‘lim fanlari doirasida dars beruvchi o‘qituvchi-tarjimonlar ustunlikka ega bo‘ladi;

– O‘z-o‘zini tekshirish, tarjima sifatini nazorat qilish.

Ish beruvchi: Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi huzuridagi Respublika ta‘lim markazi.



Manzil: Toshkent shahri,
Yakkasaroy tumani,
Bobur ko‘chasi, 9-uy.

Bog‘lanish uchun telefon raqami:

Tel: (71) 254-76-08;

rezюме yuborish uchun: rtm@xtv.uz



Omonmisiz, qadrlil ustozlar? "Sen juda oqibatsiz chiqding. Uch-to'rt oydan beri qorangni ko'rsatmaysan. Odam ham shunday bo'ladi-mi?", deb o'pkalashga shoshilmang. Buning sababini keyin vaqt bo'lganda yotig'i bilan tushuntiraman. To'g'risi, siz bilan diydorlashishni, aybimni yuvadigan bir maqola yozib "Ma'rifat"ga yuborishni anchadan beri o'ylab yurgan edim.

23- ... ~~11-~~, ~~16-~~, ~~18-~~yanvar




O'zingizga ma'lum, odam reja bilan ishlamasa hech narsaga ulgur olmaydi. Shu sababdan men ham anchadan beri miyamda pishitib yurgan maqolani yozishni tayinli bir kunga rejalashtirdim. Mashhur otarchining to'y daftariday, turli planlarga to'la daftarimni varaqlab ko'rsam, faqat 18-yanvar kuni bo'sh vaqtim bor ekan. Shartta unga katta harflar bilan "Ma'rifat"ga maqola!" deb yozib qo'ydim. Qirg qavat ko'rpaga o'ransam ham suyak-suyakkacha qaqshatayotgan sovuqning zo'ridanmi yoki sizni juda sog'inganidandmi o'sha kecha hech ko'zga uyqu kelmadi. Keyin "Baribir bekor yotibman, o'sha maqolani hozir — 11-yanvar bitmay turib yozsam nima bo'ladi?", deb o'yladim. Ammo ustimdagi ko'rpani ochishim bilan shu zahoti bu fikrdan qaytishga majbur bo'ldim. "Mayli, 18-gacha cho'zmayman, unisi hammas bunisi hammas, 16-yanvarda bir amallab bo'sh vaqt topib, o'sha maqolani yozaman" deb o'zimni ovutdim. Lekin baribir foydasiz. Uxlolmadim. Ichimda allaqanday kuch meni bezovta qilaverdi. Oxiri u maqolani 11-yanvardan qoldirmaslikka qaror qilib, qanchalik qiyin bo'lmasin o'rimdan turdim. Sovuqdan qaltiragan barmoqlarim kompyuterning "yoqish" tugmasini bir amallab bosdi. Lekin u o'lgur hech yonay demaydi. Keyin anchadan beri tok yo'q ekanligi xayolimga keldi. Bizda svetning o'chishi anomal hodisa bo'lmagani uchun uni juda tabiiy qabul qildim. "Qaytanga yaxshi bo'ldi. Boshda reja qilganimdek o'n sakkizinchida yozaman", deb ko'nglimni to'q qilib yana to'shak-

ka cho'zildim. Baribir u noma'lum kuch menga tinchlik bermadi. Bir necha bor o'rimdan turib svetni yoqib ko'rdim. Fonar yorug'ida 11, 16, 18 sanalarini ustma-ust yozaverganimdan reja daftarim ham rosa bo'yali ketdi. Bu qachongacha davom etganini aniq esolmayman. Oxiri holdan toyib uxlab qolibman.

O'sha kecha g'alati tushlar ko'rdim. Tushimda allaqanday bir shaharda emishman. Baland-baland binolarini aytmaganda uni shahar ham deb bo'lmaydi. Kunduzi bo'lishiga qaramasdan atrof g'ira-shira qorong'ulik. Osmonni qora bulutlar qoplagan, har zamonda qor uchqunlaydi. Shahar bo'lishiga qaramasdan na odamlarning g'ala-g'ovuri, na avtomobillarning shovqini eshitiladi. Ko'chalarda uyur-uyur qo'ylar, sigirlar, eshaklar kezib yuribdi. Ularning orasida odamlar ham ba'zan ko'zga tashlanadi. Yo'l bo'ylarida bir xil markadagi zanglagan mashinalar ustma-ust qalab tashlangan, ularning chirigan g'ildiraklarini eshaklar zo'r berib chaynamoqda. Manzara uchun ekilgan chimlarni allaqachon yeb bitirgan qo'ylar har yerda kavsh qayratib yotibdi...

Manzaralar shu darajada qo'rqinchilik, ongim ostiga qaysi film sabab joylashib qolganini xotirlayolmadim. Qop-qora ko'p qavatli uylardan birining yo'lagidan ichkari kirdim. Qarasam, uylarning hech birida eshik yo'q. O'ng tomonda devoriga 11 raqami yozilgan uyga sekin mo'raladim. Ichkarida katta xonaning o'rtasida gulxan yonib turibdi. Onasining pinjiga kirib, qaltirab o'tirgan bolalar otasining devorga chizayotgan



"Qani-i-i-kul"

1	2	3	4	5	6	7
8	9	10	11	12	13	14
15	16	17	18	19	20	21
22	23	24	25	26	27	28
29	30	31				

rasmlarini tomosha qilmoqda. Rasmlar 6-sinf "Tarix" darsligidagi ibtidoiy odamlar chizgan g'or rasmlariga shu qadar o'xshatilganki, ko'rsangiz hech ajratolmaydiz. Uy egalari mening kirganimga parvo ham qilmadi. Otasi sinfxonada dars o'tayotgan o'qituvchining ohangida bolalariga allanimalarni tushuntirishda davom etdi.

Shu on tashqarida ayollarning qiy-chuv ovozi eshitildi. Otilib tashqari chiqdim. Po'rim kiyingan, tannoxonimlar qo'llariga chelak ko'tarib, chuvullashgancha asfalt yo'lini to'ldirib ketayotgan sigirlarning orqasidan yugurib yurishibdi. Bir to'dasi uymalashgancha tepadek uyilgan sigir go'ngini changalab tappi qilishar, yana bir qanchasi narvonlarga tirmashib yumaloqlangan tappilarni ko'p qavatli uylarning devorlariga yopishayotgandi.

Ularning ishiga xalal bermay deb u yerdan uzoqlashdim. Ketaverdim, ketaverdim uzoqdan yana qo'ylar podasi ko'zimga tashlandi. Ikki tomonda ikkita cho'pon, biri qo'ylarni u yoqqa haydaydi, ikkinchisi qaytarib bu yoqqa haydaydi. Yaqinroq boraversam, g'ira-shira ko'zimni shamg'alat qilibdi. Adirda u yoqdan bu yoqqa chopib yurgan qo'ylar emas, orqasiga sumka osib olgan bir to'p maktab bolalari ekan. Vaziyatga tushunmay o'ygaga botgancha adirdan uzoqlash-

yapman hamki, cho'ponlar haliyam bolalarni u yoqdan bu yoqqa, bu yoqdan u yoqqa haydaydi.

Ancha vaqt atrofidagi noodatiy manzaralarga angraygancha yurganimdan so'ng bir chekkada doira shaklida o'tirib suhbat qurayotgan odamlarga duch keldim. Ularning yoniga borib salom berdim. To'planganlarning yuzlariga diqqat bilan qaradim. Ular maktab darsliklarida rasmlarini ko'rganim, dunyo tamadduniga hissa qo'shgan ulug'allomalarga juda o'xshardi. Ulardan biri menga qarab shunday dedi:

— Sizlar, o'g'lim, "1- va 2-renessansni qurgan bobolarimiz davrida svet va gaz yo'q edi. Shu sababdan ular yuksak natijaga erishgan. Biz ham svet va gazsiz yashasak uchinchi renessansni quramiz", deb xato o'ylayapsizlar...

U kishi yana nimalar dedi esimda qolmadi. Birdan uyg'onib ketdim. Qarasam boshimda xonadoshim turibdi. Uning aytishiga qaraganda: "11-, 16-, 18-yanvar" deb alahsirayverib rosa uni qo'rqitganmishman.

Xullas, qadrlil mushtariylar maqolaning yozilish sanasi borasida hali ham bir qarorga kelganimcha yo'q. To'g'risini aytсам, maqolani bir bo'lsa, 20-yanvarda yozaman degan fikr ham yo'q emas. Yo balki 23-yanvarda yozarman. Yozsam, albatta jo'nataman.

Hurmat bilan:

Beqaror SARSONBOYEV

O'qituvchi qo'rqqoq bo'lmasligi kerak!

Shu kunlarda o'nlab maktablarda bo'lib, o'qituvchilar bilan gaplashib, sezyapmanki, jamiyatdagi qo'rquv tafakkuri, ayniqsa, o'qituvchilar zehniyatida ko'proq qolib ketgan ekan. Bunda o'qituvchilarni odamlar ongiga qo'rquv tarqatish o'chog'i bo'lyapti desa ham bo'ladi. Chunki qo'rqqoq o'qituvchi qo'rqqoq insonlarni tarbiyalaydi, hech qanaqasiga erkli odamlarni emas.

Bugun aksar o'qituvchilar haqiqatni gapirishdan ko'ra jim o'tirish, boshini balog'a qo'yimaslikni ma'qul ko'rmoqda. Eng yomoni, o'quvchisini ham shu fikr, qarashda tarbiyalamoqda.

Bizda "Xalq xizmatchisi" filmidagi Vasiliy Galabarotka kabi bolalarning yuziga haqiqat oynasini tutuvchi, darslarni real hayot bilan bog'lab o'tuvchi, tanqidiy qarashli o'qituvchilar yetishmayapti.

Bu balki ularning yillar davomida erksiz, e'tiborsiz, qonun himoyasisiz

qoldirilgani oqibatidir.

Xavotirlisi esa biz hali ham tafakkurdagi ana shu qo'rquvni eritish qahida yetarli o'ylamaymiz. Taklif qilinayotgan aksar islohotlar vazirlik, ta'lim markazi, Administratsiya va qonun yaratuvchi organlar eshigidan ham chiqmay to'xtab qolmoqda.

Shuningdek, bizning islohotlar borasidagi tafakkur, o'ylashimizning o'zida ham muammo bor. Uni faqat vazir, vazirlik o'zgartirishda, shaklbozlikda deb tushunamiz.

Bugun hukumat ta'limni isloh qilmoqchi ekan, eng avvalo, o'qituvchilar zehniyatidagi ana shu qo'rquvni yo'qotishi kerak. Busiz hech qanday tajriba, u xoh fin, xoh nemis tajribasi bo'lsin, ish bermaydi. Chunki ularning tajribasi qo'rquv ustiga, erksiz o'qituvchilar bilan qurilmagandi.

Ilyos SAFAROV,
jurnalist

Abdullayev Mehriddin Junaydulloyevichning 13.00.04 — Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Ta'lim tizimida yengil atletika bo'yicha to'garak mashg'ulotlarini tashkil qilishning ilmiy-pedagogik asoslari (umumta'lim maktablari misolida)" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019. Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 25-yanvar kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy.
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, "b" bino,
2-qavat, kichik majlislar zali.
Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-27-27, 717-17-76; e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz

Mirjamolov Mexriddin Xayriddinovichning 13.00.04 — Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Oliy ta'limda paralimpiya bo'yicha sportchilar tayyorlash tizimini pedagogik nazorat qilishning ilmiy-metodik asoslari" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019. Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 26-yanvar kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy.
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, "b" bino,
2-qavat, kichik majlislar zali.
Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-27-27, 717-17-76; e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz

Mambetnazarov Islambek Muratbayevichning 13.00.04 — Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Akademik eshkak eshishda jamoaviy qayqlarga ekipajlarni shakllantirish uslubiyatini takomillashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019. Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 14-yanvar kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy.
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, "b" bino,
2-qavat, kichik majlislar zali.
Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-27-27, 717-17-76; e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz

Menlimuratova Elmira Azatovnaning 13.00.01 — Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "Ingliz tilini o'rganish jarayonida talabalarda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini takomillashtirishning pedagogik asoslari" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc. 03/30.04.2021. Ped.82 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 17-yanvar kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111720, Toshkent viloyati Chirchiq shahri,
Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
pedagogika fakulteti binosi, 114-xona.
Tel/faks: (70) 712-27-55, 712-45-41; e-mail: chdpi-kengash@umail.uz

Ibragimov Manuchexr Baxtiyorovichning 13.00.04 — Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Yuqori malakali futbolchi ayollarni yillik siklda tayyorlashda mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirishning pedagogik jihatlari" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy-tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.33/01.02.2022. Ped.146.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 2-fevral kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 19-uy. O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti.
Tel/faks: (91) 436-99-87; e-mail: uzsport.science@gmail.com

Alieva Dilafuz Muxtarovnaning 13.00.01 — Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "Bo'lajak defektologlarni tayyorlashda ingliz tilini o'qitish samaradorligini ta'minlashning pedagogik mexanizmlari" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc. 03/30.04.2021. Ped.82 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 17-yanvar kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111720, Toshkent viloyati Chirchiq shahri,
Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
pedagogika fakulteti binosi, 114-xona.
Tel/faks: (70) 712-27-55, 712-45-41; e-mail: chdpi-kengash@umail.uz

Bektorov Ozodbek Yoqubbekovichning 13.00.04 — Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "O'quv-mashg'ulot guruhi futbolchilarining taktik tayyorgarligini oshirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy-tadqiqotlari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.33/01.02.2022. Ped.146.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 1-fevral kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 19-uy. O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti.
Tel/faks: (91) 436-99-87; e-mail: uzsport.science@gmail.com

Karimov Xojtakbar Axtamkulovichning 13.00.04 — Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Yosh gimnastikachilarning texnik tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyasi" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy-tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.33/01.02.2022. Ped.146.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 1-fevral kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy.
Tel/faks: (91) 436-99-87; e-mail: uzsport.science@gmail.com

Nematov Tulqin Ergashevichning 06.01.08 — O'simlikshunoslik ixtisosligi bo'yicha "Ekish muddat va me'yorlarining kuzgi rapsning o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta'siri" (Jizzax viloyati misolida) mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/04.03.2022. Qx.13.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 27-yanvar kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Toshkent davlat agrar universiteti.
Tel/fax: (71) 260-48-00, 260-38-60; sayt: www.tdau.uz e-xat: tdau@exat.uz.
e-mail: tuag_info@edu.uz

Umirov Nemat Jo'rabayevichning 06.01.05 — Seleksiya va urug'chilik ixtisosligi bo'yicha "Yumshoq bug'doyning fakultativ navlarini sariq zang kasalligiga chidamli donorlar asosida yaratish" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining (himoyasiz ixtiro patenti asosidagi) himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/04.03.2022. Qx.13.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 27-yanvar kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Toshkent davlat agrar universiteti.
Tel/fax: (71) 260-48-00, 260-38-60; sayt: www.tdau.uz e-xat: tdau@exat.uz,
e-mail: tuag_info@edu.uz

Vafoyeva Mavluda Bobomurodovnaning 06.01.08 — O'simlikshunoslik ixtisosligi bo'yicha "Kuzgi bug'doyning o'sishi va rivojlanishiga turli komponentli makro-mikro o'g'itlarni ildizdan tashqari qo'llashning samaradorligi (Qashqadaryo viloyati misolida)" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/04.03.2022. Qx.13.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 28-yanvar kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Toshkent davlat agrar universiteti.
Tel/fax: (71) 260-48-00, 260-38-60; sayt: www.tdau.uz e-xat: tdau@exat.uz,
e-mail: tuag_info@edu.uz

Turaqulov Jurabek Shaydullayevichning 06.01.05 — Seleksiya va urug'chilik ixtisosligi bo'yicha "Shtambsimon va cherri tipidagi pomidor nav va duragaylari seleksiyasi uchun boshlang'ich manba yaratish" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/04.03.2022. Qx.13.01 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 28-yanvar kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Toshkent davlat agrar universiteti.
Tel/fax: (71) 260-48-00, 260-38-60; sayt: www.tdau.uz e-xat: tdau@exat.uz.
e-mail: tuag_info@edu.uz

Toshkent bank kolleji tomonidan Iydiyev Haydarali Farhod o'g'li nomi-ga 2018-yil 22-iyunda Davlat attestatsiya komissiyasi tomonidan berilgan K № 5319154 raqamli kasb-hunar kolleji DIPLOMI yo'qolganligi sababli


BEKOR QILINADI.

Olmazor tibbiyot kolleji tomonidan Qurbanova Mexrangiz Qobil qizi nomiga 2020-yil 12-iyunda Davlat attestatsiya komissiyasi tomonidan berilgan K № 6040496 raqamli kasb-hunar kolleji DIPLOMI yo'qolganligi sababli

BEKOR QILINADI.



Qorli poytaxt manzaralari



Mutaxassislar tomonidan anomal sovuq deb atalayotgan qorli qahraton butun O'zbekistonda hukmronlik qilmoqda. Muzlagan ko'chalar, qor bosgan mashinalar, yurilgan yo'llardagi etiklar izi... Toshkent shunday yashamoqda... Hamma sovuqdan qochgan, o'zini issiq joyga, panaga urgani-urgan, ammo qor zavqi ichidan to'lib-toshgan kichkintoylar ko'chada, yanoqlari qizarib, qo'llari muzlab qolmaguncha qishdan bahra olyapti... Qor va sovuqlik, muzlagan shahar, shu shaharda yashayotgan odamlar...

Bu manzaralarni sizga ham ilindik.

Marifat

TASIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi
O'zbekiston oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149 150. V- 5385. Tiraji 3480
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan
qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

qabulxona — (71) 233-50-55;
kotiyyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi —
(71) 233-42-92 (faks) (71) 233-56-00.

ISSN 2010-6436



"Ma'rifat" dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqiriz qilinmaydi va mulkiga qaytarilmaydi.

Mobil ilovani yuklab olish uchun ushbu QR-kodni skanerlang:



Dizayner: Malohat Toshova
Navbatchi muharrir: Faxriddin Rahimov.
Navbatchi: Bobomurod Xudoyberdiyev.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

MANZILIMIZ:
100083 Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri
Alisher Navoiy ko'chasi 30-uy.